Maksimal tezlikke erisiw ushın jarıs distanciyasın júzip ótiwde háreketler tempi hám esiw qádemin ózara salıstırmalı optimal bolıwına erisiwge háreket etiw lazım.

Joqarı tezlikke erisiw ushın (kókirekte krol usılında hám shalqansha krol usıllarında) esiw qádemin joqarı kórsetkishlerin kórsetiw qabileti joqarı áhmiyetke iye [3.126;135;].

«Qádem hám temp» júziwshilerdiń funkcional hám texnikalıq tayarlıqlarına baha beriwde eń áhmiyetli kórsetkishler bolıp esaplanadı. Olardı jarıstan jarısqa shekem baylanısqa halda sport nátiyjeleriniń kem ózgeriwi sport tayarlıgınıń nátiyjeliligi haqqında pikir júritiw múmkin.

Bul boyınsha ótkerilgen izertlewler, tájiriybeler hám izleniwlerge tiykarlangan halda biz óz jumısımız aldına tómendegishe maqset qoydıń, yaǵnıy jarıs distanciyasına jas júziwshilerdi tayarlaw metodikasın hám nátiyjeliligin bir qansha jaqsılaw bolıp esaplanadı.

Kúshli júziwshiler ústinen ótkerilgen pedagogikalıq kórsetiwlerden alınǵan nátiyjelerdi analizlew tiykarında sonı anıqladıq, yaǵnıy hár bir sportsha esiw usılında ózine tán málim bir temp hám qádem boladı hám ol tezligine qarap ózgerip turadı.

Temp hám qádem ortasındaǵı aylanıshıqtı tómendegi izbe-izlikte anıqlaw múmkin:

1) esiw distanciyasınıń artıwı menen esiw tezligi hám temp kemeyip baradı, qádem bolsa úlkeyip baradı.

2) hár bir usıl ushın aralıq hám esiw tezligine baylanıslı halda málim qádem uzınlıǵı hám temp sáykes keledi.

3) hár bir júziwshi óziniń texnikalıq sheberligine qaray, tek ózi ushın qádem uzınlıǵına iye, temp bolsa júziwshiniń tayarlıǵına baylanıslı halda uslap turıladı.

4) qızlar ushın qádem uzınlıǵı ózine sáykes júdá qısqa, temp bolsa er balalarda bir qansha joqarı boladı.

Basqa ciklik sport túrleri qánigeleriniń kópshiliginiń islegen jumısları, olardıń izertlewleri «qádem» uzınlıǵın izertlewge arnalǵan.

Máselen jeńil atletika, sol nárese málim boldı, sportshınıń ózi qádem ózi ólshegen halda hám juwırıwdan soń bolsa, urınıstıń jeke nátiyjelerin analizlewde qantasadı eken. Bul bolsa qılınǵan qáte hám kemshiliklerdi dúzetiwde maqsetke baǵdarlanılǵan jumıslardı ámelge asırıwda járdem beredi eken. Hár qıylı sandaǵı tapsırmalardı orınlaw tek ǵana seziw sheńberin keńeytip qoymastan, bálki juwırıw processinde maksimal tezlikte juwırıwdı basqarıw imkaniyatın berdi.

Kókirekte krol usılı eń nátiyjeli texnika variantı bolıp, bul bir qoldıń izinen ekinshi qoldı esiw háreketin orınlaw esaplanadı. Bunday jaǵdayda júziwshi eki esege teń uzınlıqqa júzip ótiwi múmkin [2.52-53].

Texnikalıq sheberliktiń tiykarǵı belgileri bul- háreketlerdi nátiyjeli, sapalı úlken qádem menen tez hám anıq orınlaw. Bular bolsa sportshınıń jarıs distanciyasınıń júzip ótiwinde sport nátiyjeleriniń joqarı dárejede bolıwın támiyinlewge járdemlesken boladı.

Ciklik sport túrlerinde júdá kózge kóriniwshi sharshaw háreketler tezliginiń ózgeriwi, distanciyadaǵı jumıs qábiletiniń tómeleniwinde obiektiv kórsetkish esaplanadı.

Esiwde tiykarınan sharshaw qádem uzınlıǵınıń qısqarıwı menen baqlanadı hám ol óziniń háreketler chastotasınıń artıwın menen kompensaciyalanadı. Bunday waqıtta hárekettegi tezlik ózgermey qaladı [4.55].

Aralıqtaǵı esiw tezligi tiykarınan temp hám qádemdi óz-ara baylanıslı boladı. Hár bir júziwshi ushın málim bir temp hám qádem ólshemleri boladı hám bul menen esiwde joqarı tezlikke erisiledi. Bunda temp hám qádemdi óz-ara optimal baylanıslıǵınıń texnika

variantı hám jarıs distanciyası uzınlığı menen baylanıslı. Jas júziwshilerde háreketler tempi ereseklerge salıstırmalı júdá joqarı dárejede ekenliginen dalalat beredi.

Úlken jarıslardı pedagogikalıq baqlaw nátiyjesinde sol náirse málim boladı, start bólegindegi distanciyanı 10 metr dep anıqlawğa imkan beredi. Bul distanciya aralıǵındaǵı nátiyje start komandası beriliwinen 10 metrli distanciya aralıǵın júzip ótiwge jumsalǵan waqıt penen anıqlanadı.

Bunnan basqa dúziliw birlikleri anıqlanadı, yaǵnıy burılıw aralıǵın

15 metr dep, yaǵnıy burılıwǵa shekem bolǵan aralıq 7,5 metr hám onnan keyingi 7,5 metr hám finish maydanı 10 metr deb tabıladı. Sportshılardıń jarıs iskerligin tekseriwge ayırıqsha video jazıwı yáki bolmasa qol xronometrajı arqalı anıqlanıwı múmkin.

### Ádebiyatlar:

1. *Филин В.П., Фомин Н.А.* “Основы юношеского спорта” Москва: 1980. 255 с.
2. *Korbut V.M., Zoitova G.M.* “Sport pedagogik mahoratini oshirish (Suzish)” O‘quv qo‘llanma. Toshkent 2018. -128 b.
3. *Korbut V.M., Islamov I.S.* Suzish nazariyasi va uslubiyati. O‘quv qo‘llanma -T.: Ilmiy texnika axboroti-press nashriyoti, 2018-yil, 164 bet.
4. Yakkakurash, koordinatsion va siklik sport turlari (suzish). - T.: Ilmiy texnika axboroti-press nashriyoti, 2018. -216 b.

### Rezyume.

Maqola suzish bo‘yicha sport mashg‘ulotlarini rejalashtirish, yosh iste‘dodlarni saralash, ularning anatomik xususiyatlari va fiziologik imkoniyatlarini hisobga olgan holda suzish uslubiga yo‘naltirish haqida tushunchalar ta’riflangan.

### Резюме.

Статья посвящена запланирование тренерской процессов, отбору молодых талантливых спортсменов по плаванию, их ориентации на стиль плавания с учетом их анатомических особенностей и физиологических возможностей.

### Resume.

The article is devoted to the selection of young talented swimming athletes, their orientation to the swimming style, taking into account their anatomical features and physiological capabilities.

**Tayanch sózlar:** sport, rejalashtirish, tanlash, sportchi tayyorligi, suzish uslubi, jismoniy mashq, natiyja, rivojlanish, uslubiyat.

**Ключевые слова:** спорт, запланирование, отбор, подготовка спортсмена, стиль плавания, физические упражнения, результат, развитие, методика.

**Key words:** sport, selection, athlete training, swimming style, physical exercise, result, development, methodology.

## VOLEYBOL O‘YINIGA DASTLABKI O‘RGATISH VA UNING MOHIYATI

M.Raximov<sup>1</sup>, M.Yuldasheva<sup>2</sup>.

<sup>1</sup> *Urganch davlat universiteti*

<sup>2</sup> *O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Nukus filiali*

Mamlakatimizda jismoniy tarbiya va ommaviy sport turlarini rivojlantirish bilan bir qatorda, katta sportni ham rivojlantirishga ahamiyat qaratilmoqda. Har yili respublikamizda xalqaro va jahon miqyosidagi nufuzli musobaqalar o‘tkazilib, yoshlarni sportga qiziqishi ortib bormoqda. Sportchilarimiz Osiyo, Jahon va Olimpiya musobaqalarida yuksak natijalarga erishib, yurtimiz shuhratini tarannum etib kelmoqdalar. Ushbu muammoni hal etish yo‘llaridan biri har xil turdagi maqsadli jismoniy tarbiya dasturlarini har bir talabaning ehtiyojlarini maksimal qondirishga, ta‘lim oluvchilarning jismoniy rivojlanish va tayyorgarlik darajasini imkon qadar to‘liq hisobga olishga qayta yo‘naltirish hisoblanadi.

Afsuski, sport o‘yinlari, xususan voleybol sport turi keng rivojlangan bo‘lsada xalqaro musobaqalarda yuqori natijalarga erishilayotgani yo‘q. Voleybol o‘quv fani sifatida barcha ta‘lim muassasalari o‘quv rejasiga kiritilgan, darsdan va ishdan tashqari vaqtlarda faoliyat ko‘rsatadigan sport to‘garaklari, bolalar va sport maktablarida o‘quv-trenirovka jarayonlari o‘tkazilib kelinmoqda.

Sport malakalariga dastlabki o‘rgatish jarayoni ko‘p yillik sport tayyorgarligi tizimining poydevori bo‘lib hisoblanadi. Dastlabki o‘rgatish o‘z tashkiliy, uslubiy, ilmiy va moddiy-texnika nuqtayi nazaridan qanchalik puxta asoslangan bo‘lsa, sifatli bo‘lsa, shunchalik sport o‘rinbosarlarini tayyorlash yo‘li qisqaroq va osonroq bo‘ladi. Ammo bu, albatta, mutaxassisning bilimiga, kasbiy ko‘nikma va malakalariga bevosita bog‘liq bo‘ladi. Shuning uchun mutaxassislarni tayyorlashga mo‘ljallangan o‘quv dasturining eng e‘tiborli va asosiy bo‘limlaridan biri boshlang‘ich o‘rgatish uslubiyati (texnologiyasi) bo‘lib hisoblanadi.

Musobaqa jarayonida samarali natijaga erishishning asosiy omillaridan biri bu voleybolchining texnik tayyorgarligi, texnik mahorati takomillashgan darajada bo‘lishidir. Demak, o‘rgatish jarayonining dastlabki va asosiy maqsadi bu o‘yin texnikasini mukammal o‘zlashtirishdir.

### Adabiyotlar tahlili

Hozirga qadar Oliy o‘quv yurti jismoniy tarbiya va sport nazariyasi va amaliyoti muammolariga bag‘ishlangan bir qator ilmiy tadqiqotlar bajarilgan bo‘lib, ularda oliy o‘quv yurtlari sport takomillashuvi guruhlarida sport o‘yinlaridan foydalanishning tabaqalashtirilgan uslubiyati masalalari yoritib berilgan. L.R.Ayrapetyans, M.A.Godik, 1991; Yu.D.Jeleznyak, 1994; M.C.Axmatov, 2004. Bundan tashqari V.A.Kobzev, 1996; N.A.Anashkina, 1998; A.Zelenskiy, 1998; V.P.Guba, 2000 va boshqalarning ilmiy ishlarida talaba yoshlar jismoniy tarbiya jarayonini tashkil qilishda tabaqalashtirilgan

yondashuvdan foydalanishning ilmiy-nazariy va amaliy asoslari hamda uslublari bayon qiligan. Harakat va o'yin malakalari – to'pni uzatish, qabul qilish (himoya), to'pni o'yinga kiritish, zarba berish, to'siq qo'yish belgilangan bosqichlarda, ma'lum uslublar va vositalar yordamida o'zlashtiriladi va takomillashtiriladi. Mazkur jarayon pedagogik, biopsixologik va biomexanik qonuniyatlar asosida amalga oshiriladi.

O'rgatish jarayoni – bu pedagogik jarayon bo'lib, murabbiy-o'qituvchidan katta mahorat, kasbiy tayyorgarlikni talab qiladi. Lekin shunday bo'lsada, harakatni (o'yin malakasini) ijro etish texnikasiga o'rgatish boshqa ahamiyatli sabablarga ham bog'liqdir. Jumladan bolaning faolligi, mashg'ulotlarning soni, sifati, davom etish muddati, yordamchi texnik uskunalar, mashg'ulot o'tkaziladigan joyning shart-sharoitlari, bolaning qiziqishi, harakat boyligi, tajribasi va hokazo. Shuni ham aytish zarurki, harakat texnikasini o'zlashtirish muddati bolaning oilaviy sharoitiga, uning ijtimoiy va iqtisodiy imkoniyatiga hamda ruhiy holatiga ham bog'liqdir.

Yuqorida keltirilgan ma'lumot va o'rgatish jarayonida e'tiborga olinadigan omillar ma'lum uslubiy tartibda asoslangan rejalashtiruv hujjatlaridan joy olishi kerak. Bundan tashqari, bolaning ichki sirli imkoniyatlarini hamda mavjud omillarni aniqlash tanlov dasturi va mashqlari yordamida amalga oshirilishi zarur. Olingan natijalar o'rgatish uslublarini, bosqichlarini va texnologiyasini qo'llashda tayanch omil bo'lib xizmat qilishi kerak.

Dastlabki o'rgatish jarayoni bir necha bosqichlarda amalga oshiriladi va bu bosqichlarni har biri o'ziga xos uslub va vositalarni o'z ichiga oladi. Umumiy rivojlantiruvchi mashqlar o'yinchida jismoniy barkamollik va o'yinchi uchun zarur bo'lgan harakat ko'nikmalari va malakalarini sayqallash uchun qo'llaniladi.

Barcha mashqlar o'z yo'nalishiga mos ravishda birlashgan holda mashg'ulotning maxsus tayyorgarligi asosiy qismlarini tashkil etib bularga, umumiy jismoniy, maxsus jismoniy, texnik, taktik va o'yin tayyorgarligi kiradi. Har bir tayyorgarlik turida o'zining etakchi omillari borki, ular yordamida ko'zlagan maqsadga erishiladi. Shu bilan birga barcha turdagi tayyorgarliklar bir-biri bilan uzviy bog'liq. Misol uchun, agar o'quvchi jismoniy yaxshi tayyorlanmagan bo'lsa, u hujumda zarba berish texnik mashqini yaxshi bajara olmaydi. Bunday holda o'quvchini jismoniy tomondan chiniqtirish, zarba berish usulini ko'p marta takrorlashdan ko'ra foydaliroqdir. Dastlabki o'rgatishda bosqichma-bosqich olib borilishi va o'rgatish tamoyiliga asoslanish lozim.

Birinchi bosqich – o'rganiladigan harakat texnikasi bilan tanishish. Bunda, aytib berish, ko'rsatish va tushuntirish uslublari qo'llaniladi. Murabbiy ko'rsatish bilan birga ko'rgazmali qurollardan kinofilm, tasviriy film, sxema, maydon maketi va hokazolardan foydalanadi. Namoyishni tushuntirishlar bilan qo'shib olib borish kerak. Murabbiy-o'qituvchining dastlabki urinishlari ularda birlamchi harakat sezgisini shakllantiradi.

Ikkinchi bosqich – texnikani soddalashtirilgan holatda o'rganish. Mazkur o'rganish bosqichida muvaffaqiyat ko'p holatlarda yondoshtiruvchi mashqlarning to'g'ri tanlanganligiga bog'liqdir. Ular o'zining tuzilishi shakliga ko'ra o'rganilayotgan harakat texnikasiga yaqin va o'quvchilar bajara oladigan bo'lishi kerak. Murakkab tuzilishga ega bo'lgan harakatlar ya'ni hujum zarbasi uni tashkil qiluvchi asosiy zvenolarga qismlarga

ajratib beriladi. Bu bosqichda boshqarish uslublaridan foydalaniladi buyurish, ko'rsatma berish, ko'rish va eshitish, ko'rib ilg'ash, texnik vositalar va hokazolar hamda ko'rgazmali harakatlar murabbiy-o'qituvchining bevosita yordami, yordamchi jihozlarni qo'llash, axborot to'pga bo'lgan zarba kuchi, tushish aniqligi, yorug'lik yoki ovozni belgilash kabi uslublar alohida ahamiyatga ega bo'ladi.

Uchinchi bosqich – texnikani murakkablashtirilgan sharoitda o'rgatish. Bunda quyidagilar qo'llaniladi: takroriy usul, harakatni murakkab sharoitlarda bajartirish, o'yin va baholash uslubi, qo'shma uslub, aylanma mashqlari. Takrorlash uslubi bu bosqichda eng asosiydir. Ko'p marotaba takrorlashgina malakani shakllantiradi. Malaka hosil qilish uchun takrorlash turli sharoitlarda mashq bajarishni harakat sharoitini o'zgartirishni, asta-sekin murakkablashishni taqazo etadi. Hattoki charchaganda ham mashqlar bajartiriladi, qo'shma va o'yin usublari bir vaqtni o'zida texnikani sayqallashtirishga hamda maxsus jismoniy sifatlarni o'stirish masalalarini hal qilishga hamda texnik-taktik tayyorgarlik va o'yin mahoratini takomillashtirishga qaratilgan bo'ladi.

To'rtinchi bosqich – harakatni o'yin jarayonida mustahkamlashni ko'zda tutadi. Bunda bajarilgan harakatlarni talqin qilish uslubi qo'llanadi (rasmlar, jadvallar, o'quv filmlari, tasviriy filmlar), o'yin jarayonida texnik-taktik, maxsus tayyorgarlik topshiriqlari, o'yin va bellashish usullaridan foydalaniladi.

Tayyorgarlik va o'quv o'yinlarida har bir usulni (malakani) o'rganish, uni takomillashtirish va mukammallashtirish ko'zda tutiladi. Malakani mustahkamlashning eng yuqori vositasi bu musobaqalashishdir.

Voleybolda ham boshqa sport turlari kabi o'rgatishning asosiy vositasi jismoniy mashqlar hisoblanadi. Ular juda turli-tumandir. Shuning uchun ular ma'lum bir o'rgatish bosqichidagi qo'yilgan vazifalarni hal etishdagi o'rni bo'yicha turkumlanadi. Bunday turkumlanishga voleybolchilarning musobaqa faoliyati asos qilib olingan. Shunga bog'liq holda mashqlar ikki katta guruhga ajratiladi, bular asosiy yoki musobaqa va yordamchi yoki trenirovka.

Voleybol harakatlariga o'rgatishda vositalarning samarasi ko'p hollarda ularni qo'llash uslublariga bevosita bog'liq bo'ladi. Uslublar qo'yilgan vazifa, shug'ullanuvchilarning tayyorgarlik darajasi, aniq shart-sharoitlarga bog'liq holda tanlanadi va qo'llanadi.

Qo'yilgan vazifaga bog'liq ravishda aynan bir vositani turli uslublarda qo'llab, undan turlicha foydalanish mumkin. Bundan tashqari, har bir tayyorgarlik turida vazifalar va turlarning ketma-ketligi ham ma'lum mantiqiy bog'liqlikka egadir.

Bir tayyorgarlik turidagi vazifalar sifat jihatidan o'zgarib, keyingi tayyorgarlik turiga zamin yaratadi. Masalan, tayyorgarlik mashqlari o'rganilayotgan texnik usulning umumiy tuzilishini ifoda etadi. Yaqinlashtiruvchi mashqlar maxsus jismoniy tayyorgarlikdan texnik tayyorgarlikka o'tishda ko'prik vazifasini o'taydi. Ma'lum darajadagi murakkablik asosida qurilgan texnik mashqlar taktik ko'nikmalarni shakllantirishga yordam beradi. Shu asosda keyinchalik yakka tartibdagi taktik harakatlar o'rganiladi.

Voleyboldagi asosiy harakatlanish – bu yurish, yugurish, yonga qadam tashlab yugurish, orqa bilan, qadam tashlab to'xtash, sakrashdan iboratdir. Ko'p hollarda harakatlanishlar qiyin emas deb izohlanib, ularga etarli e'tibor berilmaydi. Bu esa

noto'g'ri fikrdir. Chunki o'yinchining turli harakatlarni bajarishi uchun holat va joy tanlashi bajariladigan harakatning samarasiga to'g'ridan to'g'ri ta'sir qiladi. Shuning uchun harakatlanishlarni o'rgatishga katta e'tibor qaratish zarur.

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkinki, murabbiyning dastlabki o'rgatish jarayonini to'g'ri tashkil qilishi mamlakat terma jamoalari uzviylikini ta'minlash va malakali sport zahiralarni etishtirish kabi muhim vazifalarni samarali shakllanishiga asos bo'lib xizmat qiladi.

#### Adabiyotlar:

1. *Ayrapetyants L.R. Pulatov A.A.* Voleybol nazariyasi va uslubiyati. Darslik. T.: O'zDJTI. 2011, - 280 b.
2. *Masharipov F.T., Ro'zmetov N.Q., Ro'zmetov R.T.* Voleybol mashg'ulotlarini olib borish va boshqarishning pedagogik asoslari. O'quv-uslubiy qo'llanma. Urganch.: 2012, - 72 b.
3. *Masharipov F.T., Ro'zmetov A.T., Ro'zmetov R.T.* Voleybol va uni o'rgatishning pedagogik asoslari. O'quv-uslubiy qo'llanma. Urganch: 2018, - 80 b.
4. *Isroilov SH.X.* Voleybol. Olimpiya zaxiralari talabalari uchun o'quv qo'llanma. T.: Tasvir, 2008. – 144 b.

#### Rezyume

Maqalada voleybolshilar ushın dáslepki tayarlıq shınıǵıwları, sonday-aq, sabaqtı shólkemlestiriw hám alıp barıw, sabaqtıń maqseti, wazıypaları hámde quralları haqqında sóz etilgen.

#### Резюме

В статье рассказывается о вопросы начальные обучения волейболистов, а также организация и проведение занятие, цель занятие, задачи и средства.

#### Resume

This article deals with the development of technical preparation, organizing, their training, the aim and task of training, the aids of it.

**Tayanish sózler:** shınıǵıw, texnik tayarlıq, baslanǵısh úyretiw, tayarlıq, oyın kónlikpeleri, úyretiw quralları, arnawlı qurallar, úyretiw usılları, ásbap hám úskeneleri.

**Ключевые слова:** тренировка, технические подготовленность, начальное обучение, игровые навыки, средства, специальные упражнения, методы обучения, оборудование.

**Key words:** training, technical preparation, initial teaching, preparation, special exercises, the methods of teaching.

## BALALAR HÁM JAS ÓSPIRIMLER SPORT MEKTEBINDE DÁSLEPKI SHÍNÍGÍWLAR BASQÍSHÍNDA JAS BASKETBOLSHÍLARDÍ TAYARLAW SISTEMASÍ

Mambetjumaev T.T.

*Ózbekstan mámleketlik dene tárbiyası hám sport universiteti Nókis filiali*

Sport oýınları, ásirese basketbol oýını barısında, sportshılardıń háreketleri, oýın jaǵdayları, oýın háreketlerin orınlaw qásiyetleri hám bellesiw ózgeshelikleri menen anıqlanatuǵın ádewir fizikalıq júklemeleri menen minezlenedi. Bul sport túriniń arnawlılıǵı, qozǵalıw xarakteri hám mazmunı, sonıń menen birge bul háreketlerdi ámelge asırıwda sharayatları, oýınshınıń hám ulıwma komandanıń arnawlı tayarlıq dárejesin anıqlaydı [1].

Oýın waqtında basketbolshılardıń háreket iskerligi quramalı hám hár túrli bolıp, bulshıq etlerdiń iskerligi úlken intensivligi menen ámelge asırıladı. Qozǵalıw háreketleriniń quramalılıǵı, mazmunı hám quramalılıq dárejesi, olar arasında top penen tiykarǵı texnikalıq háreketler (toptı alıp júriw, arnawlı toqtawlar, toptı uzatıw, hár túrli jaǵdaylardan toptı sebetke taslawlar), sonıń menen birge maydanda túrli jónelislerde háreketleniw (júriw, juwırıw, tezlik penen háreketleniw), hár bir basketbolshınıń qarsılas oýınshılardıǵa qarsı bellesiwde tayarlıǵı joqarı dárejede bolıwdı talap etedi [2].

Basketbolshılardıń sheberligi uzaq waqt dawamında qáliplesiwde talap etedi hám bul arnawlı ádebiyatlardan málim bolǵanı sıyaqlı, onıń tiykarında - sportshınıń fizikalıq hám texnikalıq tárepten muwapıqlıǵın támiyinlewdiń dáslepki tayarlıq basqışı esaplanadı. Basketbol tábiǵiy háreketlerden (júriw, juwırıw, sekiriw), arnawlı topsız háreketlerden (toqtawlar, burılıwlar, fint, arnawlı ayaq háreketleri h.t.b.) hámde top penen háreketlerden (toptı qabıllaw, uzatıw, alıp júriw, toptı sebetke taslaw) ibarat. Qarsılastıń sebetine hújim jasaw hám qorǵanıw gúresinde, insan turmısındaǵı barlıq áhmiyetli fizikalıq háreketlerdi orınlawdı talap etedi: tezlik, kúsh, shıdamlılıq, teń salmaqlıq hám igiliwsheńlik. Sport nátiyjelerine erisiw ushın sportshıdan maqsetke erisiw, sheshim qabil etiw, ózine isenim, komandada birge islesiw, tárteplik, qatanlıq sıpatların talap etedi. Shuǵıllanıwshılardıǵa bunday keń qamtılǵan hám hár tárepleme kompleksli tásir beretuǵın basketbol oýını tek ǵana ájayıp sport túri bolıp qalmaq, bálki túrli jastaǵı shuǵıllanıwshılardıǵa fizikalıq hám etikalıq tálim tásirin beretuǵın qurallarından biri dep esaplaw huqıqın beredi [3].

Baslanǵısh (dáslepki) tayarlıq basqışınıń wazıypaları:

1. Basketbol menen shuǵıllanıw ushın uqıplı balalardı tańlap alıw.
2. Shınıǵıw sabaqlarına turaqlı qızıǵıwshılıqtı qáliplestiriw.
3. Hár tárepleme fizikalıq qábiletlerdi rawajlandırıw, den sawlıqtı bekkemlew, deneni sırtqı tásirlerden saqlawdı qáliplestiriw.
4. Arnawlı qábiletlerdi tárbiyalaw (tezlik, shaqqanlıq, igiliwsheńlik h.t.b.).
5. Oýın texnikası hám taktikası usıllarına dáslepki úyretiw.

6. Mini basketbol oyını qağıydalarına boysınğan halda jarıs bellesi wıqıpların engiziw. Baslanğısh qániygelik wazıypaları (shınığıw dawiri 1-2 jıl).

1. Fizikalıq sıpatlardı tárbiyalaw: tezlik, shaqqanlıq, shıdamlılıq, iygiliwsheńlik.

2. Oyun usıllarına úyretiw (basketbol mektebi), texnikalıq háreketlerin jetilistiriw.

3. Taktikalıq háreketlerine úyretiw (tiykarınan jeke hám toparlarda) hám olardı oyında jetilistiriw. Basketbolshılar óz-ara baylanıstı qalıplestiriw ushın hár qıylı funkciyalardı atqaradı. Anıq qániygelik amplua ele joq.

4. Jarıs, bellesi iskerligine tartıw. Rayon, qala kólemindegi birinshiliklerge qatnasıw.

Baslanğısh tayarlıq toparlarına (BTT) – shıpkerdin ruxsatı menen ulıwma bilim beriw mektepleri oqıwshıları qabıllanadı. Bul basqıshda hár tárepleme fizikalıq tayarlıqtı hám tiykarǵı texnikalardı qalıplestiriwge qaratılğan dene mádeniyatı hám salamatlastırıw jumısları ámelge asırıladı, sport qániygeligi tańlap alınadı hám oqıw-shınığıw toparına qabılanıw ushın qadaǵalaw normativlerin orınlaydı. Birinshi oqıw jılında, oqıw waqtınıń 40% fizikalıq tayarlıǵına qaratıladı [2].

BJÓSMde tańlaw tizimi kop jıllıq hám kop basqıshlı kompleks ilajlardı ámelge asırıw protsessi bolıp, jas basketbolshılardı bahalaw, olardıń sport iskerligin tuwrı baǵdarlaw, oqıw toparları hám komandalardıń tolıq qamtılıwı, sheberler qatarına hám saylandı komanda quramına tayarlaw bolıp tabıladı.

Baslanğısh tayarlıq toparlarına sport baǵdarındaǵı pedagogikalıq etika hám psixologiyalıq nızamlar talaplarına muwapıq barlıq qalewshiler qabıl etiledi. Dáslepki eki ay dawamında trener hár qıylı shınıǵıwlardı orınlawda hám hár túrli háreketli oyınlarda balalardıń minez-qulqları hám iskerligin bahalap baradı. Bahalaw maǵlıwmatları tiykarında, oqıwshı, basketboldıń tiykarǵı talaplarına muwapıqlıǵı haqqında dáslepki, aralıq juwmaqlar islenedi. Oqıwshınıń basketbolǵa anıq uqıbı joq bolǵan jaǵdayda, onıń ata-anasına kishi peyillik penen, balası basketbol menen shuǵıllanıw maqsetsiz dep aytıladı [4].

Parallel ráwishte bul jastaǵı oqıwshılardı tayarlaw ushın juwapker bolǵan trenerler, ulıwma bilim beriw mekteplerinde oqıwshılardı vizual bahalaw hám ayırım morfofunkcional ozgeshelikleri tiykarında tańlaw jumısların alıp baradı. Keyin saralap alıw úsh basqıshda ámelge asırıladı:

**1-basqısh.** Noyabr ayınıń ekinshi yarımında BJÓSM direktorı tárepinen tastıyqlanǵan arnawlı ekspert komissiyası (oqıw isleri boyınsha direktor orınbasarı, metodistler, aǵa trener, selekcioner) ekspertiza, oyınlar hám jarıslar formasında korik shólkemlestiredi. Ekspertiza óz ishine balalardıń boyın, salmaǵın, basqada tiyisli ólshemlerdi, háreketleniw qábiletlerin esapqa aladı. Oyun formasında qozǵalıw qábiletleri bahalawǵa qaratılğan hár qıylı estafetalar, háreketli oyınlar ótkeriledi. Jarıslar formasında qadaǵalaw normativler tómendegi sınaqlarda qabıl etiledi: 20 m. aralıqqa juwırıw, biyiklikke hám uzınlıqqa sekiriw.

**2-basqısh.** 1-basqıshdan úsh ay ótkennen keyin, fevral ayında, balalardıń morfofunkcional ozgeshelikleri menen qozǵalıw qábiletleriniń 1-basqıshqa salıstırǵanda ósiw tempı bahalanadı. Jarıslar formasında joqarıda kórsetilgen úsh sınaq ótkeriledi, arnawlı háreketli oyınlar hám mini basketbol oyınları ótkeriledi.

**3-basqışh.** 2-basqıştan eki aydan keyin, aprel ayında otkerilip ulıwma hám arnawlı fizikalıq tayarlıq boyınsha qadaǵalaw imtixan qabıllandı. Imtixan joqarıda korsetilgen úsh test, «5x6» testi hám «Aralastırılǵan test sınaq»lardan ibarat boladı hám mini basketbol jarısı ótkeriledi. 3-basqışh nátiyjeleri tiykarında, jazǵı sport hám salamatlastırıw lagerine barıw ushın eń jaqsı jas basketbolshılar tańlap alınadı [1].

**Ámeliy usınıslar:** Jas basketbolshılardı oqıtıwda eń aktual mashqalalardan biri bul, tálim sıpatın hám nátiyjeligin asırıwǵa qaratılǵan oqıw-shınıǵıwlar barısın jetilistiriw bolıp tabıladı. Fizikalıq rawajlandırıw máselesin sheshiwde, birinshi náwbette optimal ráwishte orınlanatuǵın, keyin sportshılardıń jasına qarap, mumkinshiligi bar bolǵansha maksimal dárejede, tezlik hám tezlik penen kúshke qaratılǵan shınıǵıwlardı orınlawǵa usınıs etiledi. Kúsh júklemelerin maksimal dárejeden 60-80% muǵdarında bolıp, bir háreketiń 8-10 tákirarlanadı. Qısqa aralıqqa tsikllik juwırıw shınıǵıwlardı orınlawda, háreketleniw tezligi jasqa qaray maksimal dárejeden 70-90% muǵdarda háreketleniw tezligi ornatılıwı kerek.

Oqıw-shınıǵıw sabaǵınıń quramı ulıwma qabil etilgen strukturalıq bólimlerden, kirisiw, tiykarǵı hám juwmaqlanıwshı bólimlerden ibarat qurıw usınıs etiledi:

Kirisiw bólimine 25-30 minuttan ibarat bolıp, statokinetikalıq turaqlılıqtı rawajlandırıwǵa qaratılǵan shınıǵıwlar óz ishine aladı. 15-20 sekund dawamında islenetuǵın shınıǵıwlar 8-14 ret qaytalanadı. Shınıǵıwlar arasındaǵı dem alıw intervalı 35-45 sekund quraydı. Buwınlardı háreketlendiriw hám qarın boslıǵınıń bulshıq et kúshin shınıqtırıw h.b. Shınıǵıwlarǵa kirisiw bóliminiń waqtınan 5-7 minut ajratıp, dem alıwǵa 30-40 sekund intervalı beriledi.

Tiykarǵı bóliminiń basında, ásirese baslanǵısh toparlarında, joqarı tezlik hám kúsh sıpatların rawajlandırıwǵa qaratılǵan, sonıń menen birge basketbolshılardıń bazalıq qozǵalıw elementlerin orınlaw ushın 12-15 minut waqt ajratıwǵa usınıs etiledi.

Tiykarǵı bóliminiń ortasında, qozǵalıw háreketi elementlerin úyreniw hám qaytalawǵa 15-20 minut waqt berilip, tiykarǵı bóliminiń juwmaǵında qozǵalıw sıpatların rawajlandırıwǵa qaratılǵan estafetalar hám háreketli oýınlarǵa 20-25 minut ajratıladı. Sonıń ishinde birinshi 9-10 minut dawamında joqarı tezlikke baǵdarlangan tezlik hám kúsh shınıǵıwların orınlaw kerek. Bir mártelik júklemeler dawamlıǵı 15-20 sekundtı quraydı. Shınıǵıwlardı 60-70 sekundlıq dem alıw intervalı menen 3-5 márte qaytalanıw kerek. 3-5 shınıǵıwlardı orınlawda dem alıw waqtı asırıladı. Buǵan misal retinde ayırım shınıǵıwlardı atap ótiwimiz múmkin: 10x10 m. juwırıw, arqa menen aldınǵa juwırıw, hár túrli burılıwlar menen juwırıw, awır toplar menen juwırıw, 3-5 snaryadlardan sekiriw, kuvirok, sherik penen islenetuǵın shınıǵıwlar; qolda júriw, iyinge salıp júriw hám juwırıw h.t.b.

Keyingi 10-15 minut dawamında kúsh sıpatlarına baǵdarlangan joqarı tezlik hám kúshke qaratılǵan shınıǵıwlardı menen dawam etiledi. Júkleme ósimi, jas basketbolshılardıń imkaniyatınan kelip shıǵıp, kúsh sıpatına qaratılǵan shınıǵıwlardı úlken kólemde 8-10 márte, maksimal dárejede orınlawǵa qaratılǵan bolıw kerek. Shınıǵıwlar dawamlıǵı 30 sekundqa shekem, dem alıw intervalı bolsa 45-60 shekem bolıw kerek. Jámi 3-5 shınıǵıwlardı beriw usınıs etiledi.

Oqıw-shınıǵıw sabaǵında 4 tiykarǵı toparlarǵa bólingen (arqa, qol hám iyin, qarın boslıǵı, ayaq) bulshıq etleri, bir-birine jaqın bolǵan 2-3 topardaǵı bulshıq etler ushın kúsh sıpatına qaratılǵan shınıǵıwlar isletiw usınıs etiledi. Eger sabaqta arqa, qol hám iyin bulshıq etlerine qaratılǵan shınıǵıwlar isletilgen bolsa, keyingi sabaqlarda qol hám iyin bulshıq etlerine hám qarın boslıǵı bulshıq etlerine, qarın boslıǵı bulshıq etlerine hám ayaq bulshıq etlerine, ayaq hám arqa bulshıq etlerine shınıǵıwlardı dawam etip, aylanba tártip usılda isletiledi. Sonday etip, tiykarǵı bulshıq etler toparlarına tásir etiw tsikli 4 sabaq dawam etedi. Oqıw jılı juwmaǵına kelip, bir mártelik júklemenin dawamlıǵın 10-15 sekundqa asırıwdı usınıs etiledi. Tezlikke hám tezlik-kúsh sıpatına qaratılǵan shınıǵıwlardı 2-4 toparǵa bólgén halda jarıs hám oyın usılda, tek kúsh sıpatına qaratılǵan shınıǵıwlardı frontal yamasa toparda isletiledi.

Kúsh sıpatına baǵdarlanǵan mikrotsikldi otkeriwde, tayarlıq bólimnen keyin 10-15 minut dawamında ortasha salmaqlı kúsh shınıǵıwların isletiwge usınıs etiledi. Keyin 30-45 minutlıq oqıw materiallardı qaytalaw hám ózlestiriw, basketbol elementleri menen eki tárepleme háreketli oyınlar otkeriledi.

Sonday etip, fizikalıq tayarlıq baǵdarlamasın óz ishine alǵan baslanǵısh tayarlıq basqışında, shıpkerdin ruqsatı menen, sport penen shuǵıllanıwdı qálewshi balalarǵa qaratılǵan.

Bul maqala menen, mámleketimizde jaslar sportın rawajlandırıwǵa qaratılǵan bir neshe tendenciyanı belgileydi desek maqsetke muwapıq boladı.

Erte tayarlıq basqışında shuǵıllanıwshılardıń morfologik ozgesheliklerin, olardıń tańlaǵan sport túriniń talaplarına maslasıwı, tiykarǵı fizikalıq sıpatlarınıń rawajlanıw barısında sensitiv basqışların anıqlaw, hár túrli shınıǵıwlarǵa úyreniw uqıpları, temperament, nerv tiziminiń túrli qásiyetlerin anıqlaw áhmiyetli bolıp esaplanadı.

Sport shınıǵıwları barısınıń nátiyjeliligi, fizikalıq sıpatların rawajlandırıwǵa qaratılǵan qural hám usıllardıń durıs tańlap alıw, oqıw-shınıǵıw barısın jobalastırıwına baylanıslı. Trener, hár túrli qozǵalıw qábiletlerin rawajlandırıw hám arttırıw ushın tiykarǵı qurallar hám usıllardı, sonıń menen birge sabaqtı shólkemlestiriw usılların biliwi kerek. Bunday halda, trener, hár qanday sharayatta qurallardı hám usıllardı tuwrı tańlap alıw múmkinshilikke iye boladı.

Oqıw procesiniń nátiyjeliligi, sabaq procesiniń komponentleriniń turaqlı tártip penen birlesiw koriniste bolıp, olardıń ulıwma izbe-izligi hám bir-biri menen qatnasıǵınıń nızamlıqları arqalı támiyinleniw múmkin.

Jas sportshılar menen sport shınıǵıwlardı ótkeriw ushın, dene tárbiyası sabaqların islep shıǵıw ulıwma nızamlıqları arqalı shólkemlestiriledi. Olardıń tásirliǵi, sabaq tıǵızlıǵın támiyinlew, júklemenin optimal dozasın tańlaw, shuǵıllanıwshılardıń jeke ozgesheliklerin qatan ráwishte esapqa alıp ratsional shólkemlestiriwden ibarat boladı. Joqarda atap ótken faktorlardan kelip shıǵıp, baslanǵısh tayarlıq basqışın hár túrli shólkemlestiriw, atap aytqanda, toparlıq, individual, frontal yamasa óz betinshe formalarda ótiwge ábzallıq beriliwi múmkin.

«Basketbol» baǵdarlaması boyınsha, fizikalıq tayarlıq metodikası tiykarına oqıwshılardıń fizikalıq potentsiyalın asırıwdı basqarıw ushın teoriya retinde ilimiy

tiykarlangan sabaq (trenirovka) kontsepciyası qoyılğan. Tárbiyalanıwshılardıń qozǵalıw sıpatları hám qábiletleri joqarı dárejede rawajlanıwı, ulıwma hám fizikalıq iskerligi sabaq shınıǵıwları arqalı, jeterli intensivlik hám kerekli bolǵan muǵdardaǵı qozǵalıw háreketlerine maslastırıw ushın maqsetli procesin ámelge asırıw arqalı ózlestiriw múmkin.

### **Ádebiyatlar:**

1. *T.S.Usmonxo‘djayev, M.B.Aliyev, X.X.Sagdiyev, F.K.Turdiyev, J.A.Akramov, S.T.Usmonxo‘djayev.* Toshkent – «Ilm ziyo» - 2006 – 104 b.
2. Basketbol nazariyasi va uslubiyyati/darslik: *A.A.Pulatov, F.V.Ganiyeva, B.M.Miradilov, D.T.Xusanova, F.A.Pulatov.* «Sano-standart» nashriyoti. Toshkent, 2017 - 348 b.
3. *Babushkin V.Z.* Sport oyinlarında qaniygelikti iyelew. Kiev, 1991 - 164 b.
5. *Спортивные игры:* Техника, тактика, методика обучения./Учеб. для студ. высш. пед. учеб. заведений. Под ред. Ю.Д.Железняк, Ю.М.Портнова. М.: Академия, 2004.- 520 с.

### **Rezyume.**

Bu maqolada basketbolchilarning jismoniy va texnik jihatdan muvofiqligini ta‘minlashga yo‘naltirilgan dastlabki tayyorgarlik bosqichi haqida ma‘lumot berilgan.

### **Резюме.**

В этой статье представлена информация об этапе начальной подготовки баскетболистов, где решаются задачи, направленные на развитие начальных физических и технических качеств.

### **Resume.**

This article provides information about the stage of the initial training of basketball players, where the tasks aimed at the development of initial physical and technical qualities are solved.

**Tayanch so‘zlar:** Basketbol, boshlang‘ich tayyorgarlik guruhi, qo‘zg‘alish harakati, dastlabki jismoniy va texnik tayyorgarlik.

**Ключевые слова:** Баскетбол, группа начальной подготовки, двигательные действия, начальная физическая и техническая подготовка.

**Key words:** Basketball, group of initial training, motor actions, initial physical and technical training.

**ERKIN KURASHCHILARDA PORTLOVCHI KUHLAR  
SIFATINI RIVOJLANTIRISH ASOSIDA MUSOBAQA FAOLIYATI  
SAMARADORLIGINI OSHIRISH METODIKASI**

**A.Primbetov**

*O‘zbekiston davlat jismoniy ta‘rbiya universiteti Nukus filiali*

Mustaqilligimizning dastlabki yillaridan Respublikamizda jismoniy tarbiya va sport sohasiga katta e‘tibor qaratilmoqda. Mustaqillikka erishgandan to hozirgi davrga qadar “Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risida”gi Qonunga uch marta o‘zgartirish va qo‘shimchalari kiritildi. O‘zbekiston Respublikasining “Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risida”gi Qonuni 2015 yil, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Kurash milliy sport turini yanada rivojlantirish chora tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori 2017 yil, “Jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori 2017 yil hamda mazkur sohaga tegishliboshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu tadqiqotimizda muayyan darajada xizmat qiladi.

Bugungi kunda sportchilarimiz turli sport musobaqalarida yuqori natijalarni qo‘lga kiritiyapti. Ushbu natijalarni yanada mustaxkamlash uchun ilmiy tadqiqot ishlarini keng miqyosda olib borish maqsadga muvofiq. Jumladan, yurtimizda portlash kuchni o‘lchash va rivojlantirish uchun mavjud bo‘lgan usullarni zamon talabi darajasida yaratish muhim ahamiyat kasb etadi.

Dunyoning barcha rivojlangan davlatlarida sportni rivojlantirish uchun yildan-yilga zamonaviy texnologiyalarni yaratish va ulardan amaliyotda foydalanib jahon rekordlari yangilanmoqda. Ayniqsa sportchilarning portlash kuchini rivojlantirish bo‘yicha ko‘plab ilmiy izlanishlar olib borilgan. Portlash kuchni o‘lchash va rivojlantirish bo‘yicha dunyodagi mavjud metodikalarning murakkabligi, noqulayligi (chuqurlikka sakrash, platformadan yuqoriga sakrash), ulkanligi (pliometriya), mukammal emasligi (bog‘lab qo‘yilgan metrli tasma bilan sakrashlar), sakrash vaqtida o‘sib boruvchi maqsadli ustanovkaning yo‘qligi mavjud metodikalarning zamon talabi darajasida emasligini bildiradi.

Jahonda portlash qobiliyatini o‘lchash va rivojlantirish bo‘yicha quyidagi usullar mavjud:

- beliga santimetr tasmani bog‘lab olgan holda vertikal sakrash;
- maxsus jixozlangan platformadan vertikal sakrash;
- chuqurlikka sakrab chiqish;
- pliometriya usuli;
- turli osilgan buyumlarga vertikal sakrab etish;
- shu bilan birga an‘anaviy mashg‘ulotlar ham mavjud.

Shuni aytish joizki, ushbu usullarda portlash qobiliyatini jadal rivojlantirish va uning sportchilar musobaqa faoliyatiga hamda shaxsiy omillariga ta'sirini o'rganishga doir maxsus o'tkazilgan tadqiqotlarning mavjud emasligi;

Portlash qobiliyatini rivojlantirish masalasi psixofiziologik nuqtai nazardan yetarlicha o'rganilmaganligi; sportchilarning portlash qobiliyatini jadal rivojlantirish bo'yicha sodda, ommabop yuqori samaradorlikka ega usullarning mavjud emasligi mazkur mavzuning dolzarbligini qayd etadi.

Yuqorida aytilganlarni e'tiborga olib, jismoniy tarbiya va har xil sport turi bilan shug'ullanuvchilarning portlash qobiliyatini o'lchash va rivojlantirish uchun yangi "SPORK" (sportchilarning portlash qobiliyatini o'lchash va rivojlantirish) moslamasi yaratildi. Maxsus o'tkazilgan tadqiqotlar natijasida yaratilgan moslamaning samaradorligi, ommaviyligi, jarohatlanishdan mustasnoligi, kam kuch va vaqt sarflab yuqori natijalarga erishishi isbotlandi.

Portlovchi harakat qobiliyati aslida portlovchi kuch bilan birgalikda namoyon bo'ladi. Shuning uchun zamonaviy adabiyotlarda mualliflar portlovchi harakat qobiliyatini kuch bilan birga qo'shib o'rgangan. Yuqorida aytilgan portlovchi kuch ma'lum bir harakat bajarilishi natijasida namoyon bo'ladi. Ushbu harakatlar ixtiyoriy harakatlarga kiradi. Har bir ixtiyoriy harakat bu ongli harakatdir. I.M.Sechenov ta'riflashicha, har bir ongli boshqariladigan harakat aktlari psixomotorika deb ataladi. Shu nuqtai nazardan portlovchi kuch harakatini shartli ravishda ikkita tarkibga ajratish mumkin. Ya'ni portlovchi va kuch tarkiblari. "Portlovchi" – muskulning tezkor qisqarishini ta'minlovchi tarkib. Keyingisi, nerv impul'si ta'siri ostida vujudga keluvchi "kuch" tarkibi. Kuchning namoyon bo'lishi albatta fiziologik va biokimyoviy jarayonlar bilan bog'liq. Ya'ni efferent nerv tizimi bilan birga u boshqa fiziologik, biokimyoviy jarayonlar ta'siri ostida namoyon bo'ladi. Garchi bu ikki tarkibning bir-biriga ta'sir etish konteksti qaralsa, bunda birinchi tarkib(portlash)ning ikkinchisi(kuch)ga nisbatan ustunligi ko'zga tashlanadi. Chunki, portlovchi kuchning namoyon bo'lishida u ishga tushirish mexanizmi hisoblanadi. Muskulning portlovchi vaqti kamayishi natijasida portlovchi kuchning namoyon bo'lish shiddati kuchayadi. Shu bilan birga, portlovchi kuch shiddatini muskulning mutlaq kuchi kattaligini orttirish orqali ham oshirsa bo'ladi. Biz olib borgan eksperiment natijalari shuni ko'rsatdiki, maxsus ishlab chiqilgan moslamada portlovchi harakat qobiliyatini har xil sport turlarida o'lchanganda (belbog'li kurash, erkin kurash, turon sporti, og'ir atletika, futbol va yengil atletikachilarda) sportchilarda sakrash kattaligi bir-biriga tengligi aniqlandi. Bunda savol tug'iladi, bu o'lchovlarni portlovchi kuch desa bo'ladimi yoki yo'qmi? Bunga tabiiy javobni eksperiment jarayonida oldik. Aslida kuch, kilogramm yoki djoullda o'lchanadi. Yaratilgan yangi vertikal sakrashni o'lchaydigan "SPORK" nomli moslama o'lchovi santimetrda o'lchanadi. Santimetrda olingan natijalarni har xil sportda solishtirilsa unda noto'g'ri xulosaga kelish mumkin. Masalan, bir xil vazndagi og'ir atletikachi va futbolchilarning natijalari teng bo'lsa, u holda ularning portlovchi kuchi teng deb aytib bo'lmaydi. Chunki og'ir atletikachining kuchi futbolchinikiga nisbatan ortiq bo'ladi. Boshqacha aytganda, teng sakragan futbolchi og'ir atletikachi ko'targan shtangadagi vaznni ko'tara olmaydi. Og'ir atletikachining mutlaq kuchi futbolchiga nisbatan kattaligi hammaga ma'lum.

Yuqorida bayon qilingan uslubiyatlar turli xil maqsadlarda qo'llaniladi. Ulardan biri portlovchan kuchni o'lchab bersa, boshqasi uni rivojlantiradi. E'tibor etish joizki, psixologik nuqtai nazardan barcha qayd etilgan uslubiyatlarda kuchni rivojlantirish bilan bir qatorda sportchining portlash qobiliyati ham rivojlantiriladi. Shuni aytib o'tish joyizki, hamma usullarda sportchilarda portlash qobiliyatni rivojlantirishda oshib boruvchi maqsadli ustanovka mavjud emas.

Sportchi oldiga maqsad qo'yishi, aniqrog'i uni oshirib borish bilan har bir sakrash mashqida harakatning ichki tuzilishi ham qisman o'zgaradi, ayniqsa bosh miya po'stlog'i oliy zvenosida bu kuzatiladi va mos ravishda mushaklar o'z oldiga qo'yilgan maqsad kattaligiga qarab o'z faolligini "moslashtiradi", bunda har bir harakatning bajarilishi uning natijalarini yakuniy harakat maqsadi bilan taqqoslash va korrektsiya etish orqali nazorat qilinadi, shuningdek, irodaviy kuchlanishlarni namoyon qilish qobiliyati rivojlanadi. Shunday qilib, harakat orqali o'zgaradigan vazifa va shunga bog'liq xolda ichki psixofiziologik mazmundan iborat motivatsiya o'zgarishi bilan harakatning nevrologik mehanizmlari, jumladan harakatni boshqaradigan afferentatsiya hususiyati ham o'zgaradi.

Qobiliyat insonga tashqaridan kelmaydi. Individda ichki sharoit bo'lishi zarur. Qobiliyat yadrosi bu o'zlashtirilgan avtomatlashtirilgan operatsiya emas, bu ayni operatsiyalarni, ularning sifat jarayonlari funksiyasini boshqarish. Portlovchan kuchni rivojlantirishning psixologik omili portlash qobiliyati hisoblanadi. Qobiliyatlar insonning individual psixologik hususiyatlari bo'la turib, uning tug'ma imkoniyatlari sifatida tushunmaslik kerak.

Adabiyot manbalariga muvofiq qobiliyat o'z mohiyatiga ko'ra dinamik tushunchadir. Qobiliyat faqat harakatda, faqat rivojlanishda mavjud. Psixologik jihatdan o'zining rivojlanishidan oldin mavjud bo'lgan qobiliyat to'g'risida va ayni paytda o'zining to'liq rivojlanishiga erishgan, o'z rivojlanishini yakunlagan qobiliyat to'g'risida gapirish mumkin emas. Qobiliyat faoliyat jarayonida shakllanadi, har bir faoliyat turli xil harakatlarni, aynan murakkab, bittalik yoki bir nechta harakatlarni o'z ichiga oladi. Bu harakatlarni bajarishda bosh miya po'stlog'ida psixomotorika shakllanadi.

Psixologik tadqiqotlar shuni isbotlab berdiki, ayrim psixik funksiyalar murakkab, neyrofiziologik funksional tizimlar tomonidan amalga oshiriladi. Bu funkcionalar tizimlar yaxlit miya tuzilmasida aniq bir psixik funksiyalarni amalga oshirish uchun shakllanadi. Aytish mumkinki, funksional tizimlar shunday xususiyatga egaki, ular evaziga ma'lum bir psixik funktsiya amalga oshiriladi. Shunday qilib, qobiliyat-ayrim psixik funksiyalarni amalga oshiruvchi funksional tizimlar xususiyati bo'lib, ular faoliyatining sifatli o'zlashtirilishi, amalga oshirilishi va muvaffaqiyatini ta'minlaydi. Har qanday qobiliyat nimagadir va qandaydir faoliyatga bo'lgan qobiliyat hisoblanadi. Insonda ma'lum bir qobiliyat mavjudligi aniq bir faoliyatga yaroqli ekanligini bildiradi.

Qobiliyatning shakllanishi faoliyat talablaridan kelib chiqadi va faoliyatga bo'lgan qobiliyat bo'la turib, u faoliyatda rivojlanadi va shaxsda uning u yoki bu darajadagi mustahkam mulki sifatida o'rnashib qoladi. "Psixomotorika" tushunchasi ilk bor buyuk rus fiziologi I.M.Sechenov tomonidan kiritilgan. Uning yozishicha: "hayotiy extiyojlar istaklarni (xohishlarni) dunyoga keltiradi va shuning o'zi o'z ortidan harakatlarni olib

keladi; o‘shanda xohish motiv yoki maqsad, harakat esa – amal yoki maqsadga erishish vositasi bo‘ladi. Inson ixtiyoriy(erkin) harakatni amalga oshirayotgan paytda bu harakat o‘zining ongida xohish ortidan paydo bo‘ladi. Xohishsiz motiv yoki impul’s sifatidagi harakat umuman ma’nosiz bo‘lar edi. Xodisaga bo‘lgan shunday qarashga muvofiq bosh miya ustida shakllangan harakat markazlari-psixomotor deb ataladi”.

V.V.Klimenkoning e’tirof etishicha, psixomotorika faoliyatning murakkab mexanizmidir. Unda harakatga undovchi va ijro etuvchi boshqaruv yaxlitlikda qatnashadi. Ulardan birinchisi amallar va xulqni harakatga soluvchi ko‘pgina kuchlarga asoslanadi, ikkinchisi esa o‘y fikrlarni ijro etadi, extiyojlarni qondiradi, maqsadlarga erishishga yordam beradi. Portlash qobiliyat psixomotorikasini rivojlanishi bilan, sport turiga qarab har xil maqsadlarga erishish mumkin, chunki portlash qobiliyati “keskinlik” kabi sifat ko‘rinishida namoyon bo‘lgan holda ko‘pgina harakatlarning elementi hisoblanadi. Portlash psixomotor qobiliyatining rivojlanishida va psixomotor ustanovka shakllanishida qayta afferentatsiya (P.K.Anoxin nazariyasi) va D.N.Uznadzening ustanovka to‘g‘risidagi ta’limoti muhim ahamiyat kasb etadi.

Tezkor – kuch sport turlarida portlash qobiliyati muhim ahamiyat kasb etadi. Ayni paytda barcha toifadagi shug‘ullanuvchilar uchun maqbul bo‘lgan portlash qobiliyatini jadal rivojlantirishning universal uslubiyati mavjud emas. Ushbu muammoning yechimi dissertatsiyaning ikkinchi bobida “Sportchining portlash qobiliyatini rivojlantirish uchun yaratilgan moslamaning tuzilishi va uning psixometrik testlarga qo‘yiladigan talablarga mosligi” masalalari yoritilgan bo‘lib, unda sportchilarning portlash qobiliyatini o‘lchash va keskin rivojlantirish uchun maxsus yaratilgan “SPORK” (sportchilarning portlash qobiliyati) moslamasidan foydalangan holda portlash qobiliyatlarini rivojlantirishning yangi ishlab chiqilgan texnologiyasi mazmuni va vazifalari(funktsiyalari) bayon etilgan. Mazkur kashfiyot uchun №AGU 0070 – raqamli mualliflik guvohnomasi olingan. Shuningdek, ushbu bobda olib borilgan tajriba tadqiqotlari asosida ishlab chiqilgan texnologiyaning psixometrik testlarga qo‘yiladigan talablarga mosligini tasdiqlovchi tajribalar keltirilgan. Mavjud adabiyotlarda “Portlovchan kuchni” o‘lchash va rivojlantirish bo‘yicha turli uslublar berilgan (E.M.Abalakov, Yu.Yu.Verxoshanskiy va boshq.). E’tirof etish joizki, barcha uslubiyatlarda harakatlar natijalarini nazorat qilish xis orqali axborot olish asosida amalga oshiriladi.

O.A.Konopkin tomonidan sensomotor faoliyat sohasida olib borgan tajriba tadqiqotlari shuni ko‘rsatdiki, xis orqali axborot olish asosida reaksiya vaqti tezligini aniq nazorat etish, reaksiyalarning yaxlit faoliyat sifatidagi mustaqil boshqaruvining yagona berk(xalqali) jarayonini ta’minlamaydi, bunda tekshiriluvchilarning “tezlik” imkoniyatlari to‘liq amalga oshirilmaydi. Faoliyatni ongli ravishda boshqarish uchun shart–sharoitlar yaratilganda to‘liq nazorat qilish imkoniyati tug‘iladi. Muallifning ta’kidlashicha, sub’ekt tomonidan qabul qilingan faoliyat maqsadi ongli boshqarishning markaziy bo‘g‘ini hisoblanadi. Aynan u doimo anglanadigan ob’ektdir. Sub’ektning o‘z faoliyati maqsadini aniq tushunishi muhim psixologik omil hisoblanadi, u faoliyatni mustaqil boshqarishning butun tizimi tuzilishida tizim yaratuvchi ahamiyatga ega.

Xulosa qilib aytganda, portlash qobiliyati natijalari rivojlanib borishi bilan tajriba guruhida oddiy reaksiya vaqti ham kamayishi kuzatildi. Ushbu natijalar ham vertikal

sakrash jarayonida sportchida qobiliyat rivojlanishini ta'kidlaydi. Qobiliyatning rivojlanishi faoliyat talablaridan kelib chiqadi va faoliyatga bo'lgan qobiliyat bo'la turib, u faoliyatda rivojlanadi hamda shaxsda uning ko'proq yoki kamroq darajada mustahkam mulki sifatida saqlanib qoladi. (S.L.Rubinshteyn). Tadqiqotlar olib borish davomida sportchilarning portlash harakatlari keskin rivojlanishi muvaffaqiyat qozonish motivatsiyasi bilan bog'liqligi aniqlandi. Biroq sportchilarning temperamenti bilan bog'liqligi kuzatilmadi.

#### **Adabiyotlar:**

1. **Сеченов И.М.** Избранные произведения.,-М.:Издательство «Директ-Медиа» 2010.-460 с.
2. **Узнадзе Д.Н.** Психологические исследования. –М.:Илм, 1966. 277-288 с.

#### **Rezyume.**

Bul maqalada partlawshı kúshı ólshew hám rawajlandırırw boyınsha jáhán tájiriyyesinde qollanılaturın usıllar haqqında mağlıwmat berilgen.

#### **Резюме.**

В этой статье представлена информация о лучших в мире методах измерения и развития взрывной силы.

#### **Resume.**

This article provides information on the world's best methods for measuring and developing axplosive strength.

**Tayanısh sózler:** Erkin gúres, partlawshı kúsh, qábilet, shıdamlıq, tezlik, sport, háreket,

**Ключевие слова:** Вольная борьба, взрывная сила, способности, выносливость, скорость, спорт, движение.

**Key word's:** Freestyle wrestling, explosive strength, ability, endurance, speed, sport, movement.

---

**UDK. 796.082.1**

### **12-14 YOSHLI ERKIN KURASHCHILARNI MUVOFIQLASHTIRISHDA TEXNIK VA TAKTIK FAOLIYATNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH TEKNOLOGIYALARINI RIVOJLANTIRISH**

**M.Kazaev, R.Ernazarov, P.Pranaddinov**

*O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Nukus filiali*

Olimpiya o'yinlari, jahon chempionatlari, Osiyo chempionatlari va nufuzli xalqaro musobaqalar juda mashhur va keng ko'lamlı bo'lib, ko'plab mamlakatlar yoshlarining

olimpiya sport turlariga bo‘lgan qiziqishini oshirishga xizmat qilmoqda. Jahon davlatlari jismoniy tarbiya va sportga katta ahamiyat berishadi va davlat siyosati darajasida aholi o‘rtasida sog‘lom turmush tarzi va sog‘liqni saqlashni targ‘ib qilish, xalqaro sport tadbirlarida mamlakatning sportdagi obro‘sinini oshirish bo‘yicha tizimli ishlar olib borilmoqda. Kurash dunyosida raqobat jadal o‘tib borayotgan bir paytda, erkin kurashchilarning jismoniy tayyorgarligi va musobaqa natijalarining o‘ssishi bo‘yicha obektiv ma‘lumotlarni tahlil qilish va shu asosda ularni tayyorlashning turli jihatlarini optimallashtirish muammosi juda muhimdir. Shu bois, erkin kurashchilarning texnik-taktik va muvofiqlashtirish mahoratining samaradorligini oshirish maqsadida o‘quv yuklamalarini taqsimlash va rejalashtirish, maxsus mashqlar harakatini va bajarilishini boshqarish va uni biomexanik tahlil qilish bo‘yicha tadqiqotlar olib borildi. Ammo malakali erkin kurashchilarga nisbatan, muvofiqlashtirish ko‘nikmalari va texnik-taktik harakatlar samaradorligini aniqlash uchun maxsus jihozlardan foydalanish tadqiqotchilar tomonidan e‘tiborsiz qoldirilgan. Ko‘rinib turibdiki, O‘zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sport sohasida aniq yo‘naltirilgan siyosat olib borilayotganligi sababli, ushbu sohani yanada rivojlantirishga ko‘proq e‘tibor qaratilmoqda. «Biz O‘zbekistonning xalqaro maydondagi obro‘sigacha katta hissa qo‘shgan sportchilarimiz bilan faxrlanamiz. Erkin kurash bo‘yicha milliy va xalqaro musobaqalarda keskin o‘tib borayotgan raqobat sharoitida sportchilarni tayyorlash holati va kurashchilarni tayyorlashga tizimli yondoshish to‘g‘risida obektiv ma‘lumot olish masalasi dolzarb bo‘lib, ko‘p jihatdan hech qanday mezon mavjud emas. Erkin kurash musobaqalariga tayyorgarlik jarayoni va sportchilarning individual xususiyatlari uchun usullarni tanlash, o‘quv dasturlarini belgilashda asboblardan to‘g‘ri foydalanish, sportchilar faoliyatini tahlil qilish, maxsus sport anjomlaridan foydalanish bo‘yicha tadqiqotlar olib borilmagan. Shu nuqtai nazardan, bizning tadqiqotimizning dolzarbligi ushbu tadqiqotda raqobatbardosh faoliyatni tahlil qilish asosida erkin kurashchilarning muvofiqlashtirish mahoratini va texnik taktik harakatlar samaradorligini rivojlantirish bo‘yicha pedagogik kuzatuvlar bilan belgilanadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5 martdagi PF-5368-sonli «Jismoniy tarbiya va sport sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida» gi Farmoni, 2017 yil 9 martdagi PQ-2821-sonli «Sportchilar O‘zbekiston Respublikasi Tokio-2020 (Yaponiya) da ushbu maqola tadqiqotlari ma‘lum darajada «XXXII Olimpiya va XVI Paralimpiya o‘yinlarida ishtirok etishga tayyorgarlik ko‘rish to‘g‘risida» Qarorda va ushbu sohadagi boshqa me‘yoriy hujjatlarda belgilangan vazifalarning bajarilishiga hissa qo‘shadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni ijrosi bilan bog‘liq mamlakat aholisining barcha qatlamlari, ayniqsa, yosh avlodning jismoniy tarbiya va sport bilan muntazam shug‘ullanishi uchun shart-sharoitlar yaratish, sport musobaqalari orqali yoshlarda o‘z irodasi, kuchi va imkoniyatlariga ega bo‘lgan ishonchini mustahkamlash, vatanparvarlik, ona yurtga sadoqat tuyg‘ularini kamol toptirish.

Sport nafaqat jismoniy va ma’naviy sog‘lomlik asosi, yoshlarni turli zararli yot g‘oya va odatlardan asrash, ularga o‘z qobiliyati va iste’dodlarini to‘la ruyobga chiqarish vositasi. Shu bois mamlakatimizda bu borada qator huquqiy-me’yoriy hujjatlar imzolandi. 2017-yil 3-iyunda “Jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora tadbirlari to‘g‘risida”gi qaror, 2018-yil 5-martda “Jismoniy tarbiya va sport sohasida davlat tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi farmonning qabul qilinishi va mazkur farmonga ko‘ra Respublika Jismoniy tarbiya va sport qo‘mitasining vazirlikka aylantirilishi, shuningdek, Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 29-yanvardagi “O‘zbekistonda sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish va aholini jismoniy va ommaviy sportga jalb etish to‘g‘risida”gi, 2019-yil 13-fevraldagi, “2019–2023-yillar davrida O‘zbekistonda jismoniy va ommaviy sportni rivojlantirish kontsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarorlarining qabul qilinishi O‘zbekistonda jismoniy tarbiya va sport sohasida yangi bosqich boshlanganidan dalolat beradi. Prezidentimiz Sh.Mirziyoevning 2018-yil 29-dekabrda Oliy Majlisga Murojaatnomasida: “Sportni jadal rivojlantirish, xalqaro musobaqalarda yuksak natijalarga erishgan sportchilarni rag‘batlantirish va qo‘llab-quvvatlashga bundan buyon ham katta ahamiyat beramiz. Yosh avlodimiz o‘rtasida sportni ommalashtirish maqsadida eng chekka tumanlarda bolalar va o‘smirlar sport maktablarini tashkil etamiz”, – deya alohida to‘xtalishlari bu boradagi islohotlarning yanada jadal rivojlanishiga turtki bo‘ldi.

Shundan kelib chiqib, sportchilarimizni har tomonlama rivojlangan, bilimli va jamiyatda o‘z o‘rinlarini topib ketishlariga yo‘l ko‘rsatishimiz kerak bo‘ladi. Sportchilarimizni emocional barqaror va o‘z oldilariga qo‘ygan maqsadlariga erisha olishlari uchun ularni irodali qilib tarbiyalashlarimizda sport psixologlarining o‘rni katta ahamiyatga ega. Sport psixologlari murabbiylar bilan bir qatorda sportchilar bilan teng ishlagan holda o‘z faoliyatlarini olib boradi.

Hozirgi kunda «Sport psixologiyasi» fani sportchilar va murabbiylarga sport faoliyatini tashkil etish va boshqarish uchun zarur bo'lgan fanlar qatoridan mustahkam o'rin oldi.

Sport inson o'z o'zini tarbiyalashi uchun etakchi omillardan biri sifatida talqin etiladi. Sportdagi ko'rsatkichlarning o'sish me'yoriga qarab sportchi nafaqat jismoniy, balki ruhiy, aqliy, axloqiy, ma'naviy va vatanparvarlik nuqtai nazaridan tarbiya jarayoniga kirib boradi. Bu borada sportning ahamiyati nihoyatda kattadir. Sportchi sport bilan shug'ulanishni boshlashi bilanoq g'alaba nashidasi va mag'lubiyat azobini tatib ko'rishni boshlaydi. Barcha birdek bu jarayondan ijobiy o'ta olmasligini sport sohasida yaxshi o'rganib chiqishgan. Sportning mashaqqatlariga chidab, keyingi bosqichga qolgan yoshlar mahoratlarini oshirib, yangi ijtimoiy munosabatlar darajasiga o'tadilar.

Sportchilarda irodalilik, g'alabaga intiluvchanlik, epchillik, o'zini tuta bilishlik, chidamlilik kabi sifatlarning shakllanishida sport mashg'ulotlarining ahamiyati katta. Shu ma'noda sportchiga xos xarakter-xislatlar sport faoliyatida asta sekin vujudga keladi, keyinchalik bu xislatlar uning doimiy xarakteriga aylanadi. Masalan, irodaviy sifatlari yaxshi rivojlangan sportchi musobaqalarda yuqori natijalarga erishadi. Bu sportchining ham irodaviy, ham jismoniy jihatdan chiniqqanligidan, ham mustahkam xarakterga ega ekanligidan dalolat beradi. Ammo uning barqaror xarakter xislatlari, ijobiy axloqiy va irodaviy sifatlari sport mashg'ulotlari va musobaqalarda, ta'lim va tarbiya jarayonida, mehnatda shakllanib boradi [2. 39-41].

Ushbu jarayonning uzluksiz davom etishi esa sportchining yanada yuqori natijalarga erishishiga sabab bo'ladi. Aksincha, sportchining mashg'ulotlarda intizomsizligi, bilim olishga layoqatsizligi, o'qish va mehnatdan bo'yin tovlashi, qo'polligi yoki aldanchiligi kabi salbiy sifatlari uning ham sportda, ham hayotda to'siqlarga bardosh bera olmaslikka, ruhiy tushkunlikka olib keladi. Ibn Sino fikrincha, kishidagi eng yaxshi sifatlar, avvalo, chidamlilik, axloqiylik va mardlikda ko'rinadi. Mana shu uch ijobiy xislat birgalikda uning xarakterida adolat va mo'tadillikni yuzaga keltiradi. Agar kishida mana shu sifatlar bo'lsa, u hech qachon yomon yo'llarga kirmasdan, o'zini faqat oilasi, jamoasi va jamiyat ravnaqini ta'minlovchi ishlarga bag'ishlaydi. Binobarin, hayotning har bir davri o'ziga xos go'zallikka ega. Shu ma'noda sportchi talabalik yillarida puxta bilim olishi, umuminsoniy xislatlarni o'zida shakllantirishi, ijtimoiy hayotda faol bo'lishi hamda qiyinchiliklardan qo'rqmaydigan shaxs bo'lib yetishishi uchun o'z xarakterini toblab borishi lozim [3. 72]. Buning uchun sportchi o'zida quyidagi xarakter xislatlarni shakllantirishga erishmog'i shart:

1) hayotning hamma sohalarida sermahsul ruhiy faollik holatini vujudga keltirishga odatlanishi;

2) yaxshi xulq, ijodiy bilim va sportchilar uchun zarur xislatlarni egallashi;

3) hayotda qiyin va murakkab sharoitlarga duch kelganida yoki muammoli masalalami hat etishda, o'z maqsadiga erishishda vijdonli bo'lishi hamda aniq va to'g'ri yo'lni tanlay bilishi.

Ba'zi bir sportchilar o'zining xarakteriga mos sport turini tanlashda xatolikka yo'l qo'yadi. Masalan, agar talabalarda insonparvarlik his-tuyg'ulari yaxshi rivojlangan bo'lsa, sportning tajovuzkor harakat qiladigan turlari bilan shug'ullanmagani maqsadga

muvofig. Lekin sportning ayrim turlari uchun tajovuzkorlik juda zarur. Busiz sportda g'alabaga erishish juda qiyin kechadi. Ba'zi bir sportchilar yuqori jismoniy tayyorgarlikka ega bo'lsalarda, sport musobaqalarida tajovuzkor harakatlar ko'rsata olishmaydi. Lekin shu jamoadagi do'sti o'rtacha jismoniy tayyorgarligi bilan musobaqada tajovuzkor harakatlar yordamida yuqori natijalarga erisha oladi. Shuningdek, ba'zi sportchilar o'qish va mashqlar jarayonida kattalar va murabbiylar tomonidan yetarli tarbiya olmaganligi sababli ulardagi vijdotsizlik va beodoblik sifatlari tez rivojlanadi. Yoki sportchi yoshining o'tishi va sportda ketma-ket mag'lubiyatlarga uchrayverishi natijasida oxiri sport bilan tamoman xayrlashadi. Biroq shundan keyin ham o'zining tajovuzkorlik harakatlarini to'xtata olmaganidan sportchi ruhiy qiyinchiliklarga ko'p uchraydi. U o'zining xulq-atvorini o'zgartira olmaganidan, boshqa odamlardek osoyishta hayot kechira olmay juda qiynaladi. Shuning uchun murabbiy sportchilarni tajovuzkorlik harakatlarini faqat raqibga qarshi sport musobaqasi qoidalari asosida qo'llashga odatlantirishi lozim [1. 128-bet].

Sportchi xarakterining rivojlanishi faol sport faoliyati jarayonida hamda jismoniy mashq harakatlariga bog'liq ravishda sodir bo'ladi. Sport faoliyati jarayonida sportchilarga xos bo'lgan xarakter-xislatlar nihoyatda xilma-xil bo'lib, bu xarakter-xislatlar sportchi ruhiyatining hamma tomonlari bilan uzviy bog'liq holda shakllanadi. U sportchining harakatlarida, qiliqlarida, fe'l-atvorida takrorlanib turadi. Shu bilan birga, xarakterning ayrim xislatlari sportchi ruhiyatining biror jihatida, ayniqsa ravshan namoyon bo'ladi. Masalan, sportchining o'ziga bo'lgan talabchanligi, tanqidiy qarashi, fahmi, farosati, kuzatuvchanligi, xushyorligi singari xarakter xislatlari sportchining aqliy va sport faoliyatida yaqqol sezilib turadi. Sportchidagi quvnoqlik, mehribonlik, sportdagi har qanday adolatsizlik va nohaqliklarga nisbatan sezgirlik singari sifatlari ko'proq sportchining hissiyotlarida o'z aksini topadi.

Har bir sport turi mashg'ulotlar va musobaqa jarayonida sportchining taktik mahoratini oshirib borish uchun ma'lum talablar qo'yadi. Masalan, bokschidan ringda raqibining taktik harakatlarining o'zgarishiga qarab, unga qarshilik ko'rsatish usullarini o'zgartirib borish talab qilinadi. Jamoadagi intizom sportchidan o'z hissiyotlari va xohishlaridan tiyilishni, baydarka qayig'ini eshkak bilan haydash muvozanatning har qanday buzilishiga sportchining o'z vaqtida yo'l qo'ymasligini talab qiladi. Bu talablarni ixtiyoriy ravishda o'zgartirish mumkin emas, chunki ular obyektiv sabablarga, ya'ni faoliyat mazmuniga bog'liq bo'ladi [3. 74]. Shunday ekan, barqaror va o'zgarimas temperament tipiga ega bo'lgan sportchi o'zining asab tizimi dinamikasi kuchini ma'lum sport faoliyatining shartlariga va murabbiyning talablariga qanday qilib moslashtira oladi?

Sportcha xayotga sangvinik va xolerik temperament tiplarining tezrok moslashishini, flegmatik va melanxolik tiplarining esa, aksincha, qiyinchilik bilan kunikishini tadqiqotlar ko'rsatdi. Xolerik I.P.Pavlovning fikricha aniq jangovar tip, u oson va tez ko'zg'aladi. Qiyinchiliklarsiz yangi hayot sharoitlariga moslashadi, atrofdagi kishilar bilan oson muloqatga kirishadi, u yangi sharoitlarda paydo bo'ladigan to'siqlardan qurqmaydi, jushkin faoliyat soxibi ekanligini namoyon etadi, shuningdek tezda jamoa lideriga aylanadi.

Bunday odam ishni faol boshlab, uning oxirida sovib qolishi mumkin. Uni bir tekisdagi sekin xarakterlar toliqtiradi. U jushqin va keskin harakatlarga moyil. Tajribalar shuni ko'rsatadiki, xolerik temperamentli odam biron topshiriqni bajarishdan oldin keragidan ortiq hayajonlanadi. Bu esa jismoniy tarbiya mashg'ulotlari va sport trenirovkalari jangovor tayyorgarliklarda salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Sangvinik temperamentli kishilarning harakatlari xolerikga qaraganda sekinroq ammo bunday tip yangi sharoitlarga tezda moslashadi. Shug'ullanuvchi sportchi (o'quvchi, bolalar) - sangvinik o'zining optimistligi va amaliyotchiligi bilan jamoaga tezda qo'shilib ketadi. Tengdoshlari bilan tezda tanishib, urtoqlik munosabatlarini urnatadi. Flegmatik temperamentidagi shug'ullanuvchi sportchi (o'quvchi, bolalar) vazmin, kam harakat qiladigan va xotirjam bo'ladi. Unga kuchsiz emotsional ko'zg'aluvchanlik xos. U bo'lgusi harakatlarni o'zoq uylaydi, qarorlar qabul qilishda qiynaladi, xayotning yangi sharoitlariga qiyinchilik bilan va sekin moslashadi. Ammo ishda qat'iylik va chidamlilik ko'rsatadi. Flegmatik urtoqlikka moyil emas, ya'ni ko'prok yolg'izlikni ma'qul ko'radi.

Buning mumkin bo'lgan yo'llaridan biri shuki, avvalo, sportchi temperamentiga mos keladigan sport turini tanlashi kerak. Masalan, sportning parashutdan sakrash, avtomobil va motosport turlari bilan shug'ullanish melanxolik uchun nihoyatda qiyin yoki bunday temperamentga ega bo'lgan alpinistda to'satdan paydo bo'ladigan, xavfli va qisqa vaqtda hal qilish, yechimini topish talab qilinadigan murakkab vaziyatlarda o'zini boshqarish og'ir kechadi.

Temperamentning ayrim jihatlarini qisman qayta tarbiyalash orqali uni sport faoliyati talablariga ma'lum darajada moslashtirish mumkin bo'ladi. Masalan, sportchida yuksak faollikni uyg'otadigan juda qiziqarli mashg'ulotda xolerikning vazminlik darajasi xuddi sangvinik temperamentli sportchilarnikidek bosiq bo'ladi. Futbol o'yinida melanxolik o'z vazifasini chuqur his qilgani tufayli o'ziga xos bo'lgan xavotirlanish xususiyatlariga qaramay, o'yinda sangvinik darajasida taktik mahoratini ko'rsatishi mumkin [4. 449]. Demak, temperament moslashuvning bu yo'li ham cheklanmagandir. Chunki juda qiyin sharoitlarda taxminan, o'ylab ko'rmasdan va tayyorgarliksiz juda tez harakat qilish lozim bo'lib qolgan taqdirda, temperament xususiyatlari eng chuqur va faol hissiyotlarning ta'siriga qaramay namoyon bo'lishi mumkin. Sport mashqlari va sog'lomlashtirish tadbirlari yordami bilan melanxolikning ishonchligini oshirish mumkin. Biroq tashqi hayot sharoitlari va tarbiyaga bog'liq holda temperamentning hamma xususiyatlarini o'zgartirib bolmaydi.

Xulosa qilib aytish joizki, temperament va xarakter sport faoliyatida katta ahamiyat kasb etadi. Mardlik, bag'rikenglik, raqibiga nisbatan oliyjanoblik, halollik, or-nomus, g'urur kabi tuyg'ularni sportchi o'zining individual psixologik xususiyatlariga singdirishi, raqibni inson sifatida hurmat qilish, maydonda mardlarcha halol kurasha bilish, ona Vatanini, el-yurt sha'nini himoya qilish kabi an'ana va qadriyatlarini o'z e'tiqodiga aylantirishi kerak. Chunki, sport faoliyatida individual psixik xususiyatlar muvaffaqiyatli natijaga erishishda maqsadga muvofiq bolgan harakatlar usuli va yolining individual tizimidir.

1. *Masharipov Y.* Sport psixologiyasi. Leksiyalar to'plami. – Samarqand: SamDU, 2003, 128-bet.
2. *Masharipov Y.* Ta'lim jarayonida talabalarning ruhiy holatini boshqarish muammolari. Pedagogikaning dolzarb muammolari. II qism. – Samarqand: SamDU, 1996. 39-41-betlar.
3. *Masharipov Y.* Talabalarning sportga qiziqishlarini oshirishning psixologik-pedagogik shartlari. Jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirishning dolzarb muammolari. – Samarqand: SamDU, 2004, 72-74-betlar.
4. *Petrovskiy A.V.* Umumiy psixologiya. – T.: O'qituvchi, 1975, 449-472-betlar.

### Rezyume

Bul maqalada sportshilardıń xarekter hám temperament ózgeshelikleriniń sport jarıslarındaǵı jaǵdayı haqqında maǵlıwmatlar berilgen.

### Резюме

В этой статье дано о чувствах характера и темперамент спортсмена в спортивный соревнованиях.

### Resume

This article presents the information about the character and temperament traits of athletes while in sport competitions.

**Tayanış sózler:** Sportshı, xarakter qásiyetleri, sport jarısları, temperament, xolerik, sangvinik, flegmatik, melanxolik, shınıǵıwlar.

**Ключевые слова:** Спортсмен, чувство, характер, темперамент, спортивный соревнования, сангвиник, холерик, флегматик, меланхолик упражнения.

**Key words:** Athlete, character traits, competition, temperament, melancholy, sanguine, phlegmatic, melancholy, training.

---

УДК. 79.01/09

## ТАРИХ ЗАРВАРАҚЛАРИДА БАСКЕТБОЛНИНГ ПАЙДО БЎЛИШИ

А.Авезбаев

*Ўзбекистон давлат жисмоний тарбия ва спорт университети  
Нукус филиали*

Жисмоний тарбия ва спорт – бу халқнинг умумий маданиятининг ажралмас қисми бўлиб, мамлакатнинг ҳар бир фуқорасини жисмоний ва ахлоқий баркамоллигини таъминлашнинг асосидир.

Мустақилликнинг дастлабки йилларидаёқ мамлакатда иқтисодий, сиёсий, маданий жараёнлар бўйича кенг қамровли ислохотларни ўтказиш натижасида жисмоний тарбия ва спорт соҳасида ҳам аҳамият касб этувчи янги йўналишлар юзага келди. Аҳолининг саломатлигини яхшилаш, ўқувчи ёшлар ва талабаларнинг

жисмоний баркамол қилиб тарбиялаш, иқтидорли спортчиларнинг маҳоратини давр талаблари ҳамда халқаро андозалар асосида такомиллаштириб бориш, шунингдек давлат хизматчиларининг ишчанлик қобилиятлари ва меҳнат унумдорлигини ошириш, энг муҳими эса, соғлом турмуш тарзини шакллантиришга алоҳида эътибор кучайди.

Давлатимиз раҳбарининг “Ўзининг саломатлиги ҳақида шахсан ғамхўрлик қилиб бориш маданиятини ёшлиқдан, мактаб, маҳалла, соғлиқни сақлаш тизими, жисмоний тарбия ва спортнинг кўмагида сингдириш керак”, - деган сўзлари спорт тараққиётида муҳим ўрин тутмоқда. Жисмоний тарбия ва спорт соҳаси давлат ижтимоий-иқтисодий тараққиётининг асосий йўналишига айланган шахснинг жисмоний ва ахлоқий юксалишида аҳамиятли омил бўлди. Давлат ва жамият фаолиятининг самарадорлигининг мезони бу мамлакатимизнинг ҳозирги ва келгуси авлодларнинг маданий ва ҳаётий фаолиятини оширишнинг аҳамияти бўйича бирламчи бўлган омили ҳисобланган болалар ва ўспиринларнинг жисмоний ва ахлоқий соғлиғини жадал ривожланиши мезон ҳисобланади.

Олий ва ўрта таълим тизимини ислоҳ қилиш ҳамда жисмоний тарбия ва спорт муассасаларида янги мутахассисликлар олимпия ва профессионал спорт каби жисмоний тарбия, жисмоний реабилитация, туризм ва бошқаларни ривожлантириш, талабаларнинг методик ва жисмоний тайёргарлиги ҳолатини янада ўрганишни талаб этади.

Жисмоний тарбия ва спорт соҳасидаги мутахассисларни бевосита танланган мутахассислик бўйича мақсадли, узоқ муддатли тайёрлашнинг йўқлиги жуда жиддий муаммо ҳисобланади.

Жисмоний тарбия мутахассисларини касбий тайёрлашнинг энг муҳим омилларидан бири – уларнинг жисмоний тарбия, спорт ўйинлари тарихини яхши билишларидир. Иккинчи муҳим жараён – ўқитувчининг, яъни мутахассиснинг дидактик ва ўзига хос тамойилларга мувофиқ таълим-тарбияни олиб боришга тайёрлигидир. Ҳар бир спорт тури билан шуғулланиётган талаба мазкур спорт тури тарихини чуқур англамоғи, шу спорт турида кимлар машхур ўйинчи бўлганлиги ҳақидаги маълумотларга эга бўлсалар, фойдадан холи бўлмайди. Зеро, мазкур билимлар уларга психологик стимул, мотивация вазифасини бажаради.

Шу ўринда спортнинг чаққонлик ва эпчилликни талаб қилувчи тури – Баскетбол тарихи ҳақида фикрлашишни жойиз топдик.

130 йил аввал, 1891 йилнинг 21 декабрида тарихдаги биринчи баскетбол ўйини бўлиб ўтди. Ўйин муаллифи Спрингфилд шаҳридаги (Массачусетс штати) YMCA Халқаро ёшлар коллежи ўқувчиларининг гимнастика дарсига ранг-баранглик олиб киришга қарор қилган педагог Жеймс Нейсмит ҳисобланади. Илк баскетбол ўйинида 9 кишилик икки жамоа қатнашган, ўйин 1:0 ҳисобида тугаган. Баскетболнинг ривожланиш йўли жаҳон ахборот агентлиги томонидан кузатилиб, спортнинг бу тури ҳақида бир қатор маълумот бериб борган [3].

Баскетбол қоидаларига кўра, Нейсмит томонидан тузилган илк баскетбол қоидалари 1892 йилнинг 15 январидан чоп этилган. Қоидалар баскетболнинг

замонавий қоидаларидан анча йироқ 13 пунктдан иборат бўлган. 1893 йилда мевалар солинадиган сават тўрли темир саватга алмаштирилган. 1984 йилда баскетболнинг биринчи расмий қоидалари жорий қилинган. 1895 йилда ўйинга жарима тўпи киритиш ва саватни тахтага маҳкамлашга қарор қилинган. Шу йилнинг ўзида баскетбол бўйича биринчи расмий мусобақалар бўлиб, ўтган. 1897 йилда ҳар бир жамоада ўйнайдиган ўйинчилар сони 5 киши билан чеклаб қўйилган. 1936 йилда баскетболда 3 сония қоидаси жорий қилинган. Унга кўра, ҳужум қилаётган жамоа ўйинчисига рақиб савати остида 3 сониядан ортиқ қолиш тақиқланган. Ўйин қоидаси бузилган тақдирда тўп ҳимояланаётган жамоага ўтиши керак бўлган [2].

Халқаро мусобақалар эса, 1932 йилда Халқаро баскетбол федерацияси (FIBA) ташкил этилди. 3 йилдан сўнг унинг шафелиги остида биринчи йирик мусобақа - Европа чемпионати ўтказилди. Ўшанда Латвия терма жамоаси турнир ғолиби бўлганди. 1936 йилда баскетбол Олимпия ўйинлари сафига қўшилди. Биринчи Олимпия чемпионлари америкаликлар бўлишди, кумуш медаль - канадаликлар, бронза медали Мексика жамоасига топширилган [1].

1938 йилда аёллар ўртасида биринчи Европа чемпионати ўтказилиб, унда Италия терма жамоаси ғалаба қозонди. Иккинчи ўрин - Литва вакиллари, бронза эса Польша жамоаси томонидан забт этилган.

1950 йилда илк жаҳон чемпионати бўлиб ўтади. Мазкур турнир Аргентинада ўтказилди. Финалда чемпионат эгалари АҚШ терма жамоасини мағлуб этди. Аёллар ўртасида жаҳон биринчилиги 1953 йилда ўтказилган ва унда финалда Чили жамоасини мағлуб қилган америкаликлар ғолиб бўлишган. 1972 йилда АҚШ терма жамоасининг Олимпия ўйинларидаги ғалабалар сериясига чек қўйилди. Уларни мағлуб қилишга собиқ иттифок терма жамоасигина муваффақ бўлган [1].

Баскетбол бўйича халқаро мукофотлар 1959 йилда Жеймс Нейсмит номидаги Шон-шараф зали тузилган. Унга баскетбол ривожига катта ҳисса қўшган ўйинчилар, мураббийлар ва амалдорлар киритилади.

1992 йилда Шон-шараф залига биринчи марта америкалик бўлмаган ўйинчи қўшилган. Бу 1972 йилдаги ўйинлардаги олтин тўп муаллифи бўлган Александр Белов эди. Кейинчалик унга мураббийлар Александр Гомельский (1995 йил) ва Лидия Алексеева (2012 йил) қўшилган.

2007 йилда Испаниянинг Алькобендас шаҳрида баскетбол федерациясининг Шон-шараф зали очилган. Унга тўрт хил тоифа кишилар кирган: ўйинчилар, мураббийлар, судьялар ва амалдорлар. Янги аъзоларни қабул қилиш икки йилда бир марта амалга оширилади [3].

Республикамизда жисмоний тарбия ва оммавий спортни ривожлантиришга эътибор кучаймоқда. Янги спорт иншоотлари ва майдонлари қурилиб фойдаланишга топширилмоқда. Тошкент шаҳри ва вилоятларда мамлакат ва халқаро миқёсда ўтказилаётган мусобақалар сони кўпаймоқда. Мусобақалар орасида ёшларимиз томонидан катта қизиқиш билан қаралаётган спорт тури – бу баскетболдир. Ўзбекистон давлат жисмоний тарбия ва спорт университети

Нукус филиали талабалари ҳам спортнинг мазкур турига ўз қизиқларини билдиришган ва турли спорт тўғараклари орадида фаолият юритаётган баскетболга ҳам қатнашувчи талабалар сони кундан кунга ортмоқда. Бу албатта кишини қувонтиради. Спорт тури билан шуғулланишда инсон унинг тарихи ҳақида қисқача бўлсада маълумотга эга бўлиши ундаги мотивациянинг кучли бўлишига олиб келади. Инсонни спорт билан шуғулланишга кизиқтиришнинг асосий рухий хоссаси-ушбу спорт тури билан шуғулланиш орқали эришиладиган кониқиш хиссини ҳосил қилиш туйғусидир.

Биз 1-курсга кирган “Спорт турлари” факултети талабаларини баскетбол бўйича жисмоний-техник тайёргарлигини ўрганиш мақсадида тадқиқотлар олиб бордик. Тадқиқотда 1-курс “Спорт турлари” факультети 72 ўғил, 44 қизлардан иборат бўлган талабалар иштирок этишди.

Тажриба бошида сўровнома ўтказдик, унинг ёрдамида спорт билан шуғулланаётган талабалар сонини аниқладик. Университетга киришдан олдин талабалар, маданият саройлари, мактаб спорт зали, ёшлар спорт мактабида шуғулланганлиги ва қандай спорт натижаларига еришганлиги ҳамда улар орасида кимлар баскетбол билан шуғулланганлигини аниқлашга ҳаракат қилдик. Мазкур масалани сўровнома орқали аниқланди. Сўровнома натижаларидан 53% талаба шаҳар мактабида ўқиб, тренировклар учун клублар, спорт мактабларига борганлиги, 40% талабаларда спорт мусобақаларида иштирок этиб, турли совринлар билан мукофотланганлиги, бу талабаларнинг деярли ҳаммаси баскетболдан бошқа, яъни каратэ, енгил атлетика, сузиш каби спорт турлари билан шуғулланганлиги маълум бўлди. Тадқиқотимизда иштирок этган талабаларнинг 9% баскетбол билан шуғулланганлиги маълум бўлди. Олий таълим муассасасига қабул қилинган талабаларнинг ярми қишлоқ жойлардан ярми эса шаҳар худудидан киргани ҳам аниқланди. Синалувчи талабаларнинг деярли кўпчилиги спорт билан жисмоний тарбия дарсларида шуғулланган, лекин махсус жойларга бориб шуғулланишмаганлиги маълум бўлди. Сабаби сўралганда, шароит тақозоси билан деган жавоблар олинди. Университетда талабалар 52% спорт маҳоратини ошириш учун туризм турини танлашини маълум қилишди. Баскетбол машғулоти олиб борилгач, қизларнинг 60% спортнинг мазкур турига қизиқиш билдиришди.

Шуни таъкидлаш керакки, мактабларда ўқувчилар учун жисмоний тарбия дарслари дастурида баскетболга кам соат ажратилагна ва асосан ўйиннинг келиб чиқиш тарихи билан таништирилмайди. Асосан ўйин техникаси тушунтирилиб, амалий машқлар элементлари ўтилади. Ривожланаётган даврда яшар эканмиз, бугунги кун нуқтаий назаридан келиб чиқиб, таълим муассасаларида жисмоний тарбия дарсларида баскетбол спорт турига қизиқишни ошириш лозим. Ёшлар ўртасида соғлом турмуш тарзини қарор топтириш, жисмонан соғлом ва маънан баркамол авлодни тарбиялаш ишига ҳар биримиз масъулдирмиз.

#### **Адабиётлар:**

1. **Платонов В.Н.** Общая теория подготовки спортсменов в олимпийском спорте. – Киев: Олимпийская литература, 1997. – 583 с.

2. Уэйнберг Р.С., Гоулд Д. Основы психологии спорта и физической культуры. - Киев: Олимпийская литература, 1998. – 334 с.

3. «Спортивные игры». Учебник для студентов педагогических институтов под редакцией В.Д. Ковалева. Москва, «Просвещение»

**Резюме.**

Мақалада спорттың баскетбол түринің тарихы, жетилісіуі хэм раўажланыуы ҳаққында мағлыўматлар келтирилген. Бул спорт түрине болған қызығыўшылықтың артып баратырғанлығы, сондай-ақ бул спорт өз гезегинде тезлик хэм шаққанлықты талап етиўи сыяқлы бир қатар қәсийетлери ҳаққында сөз етилген.

**Резюме.**

В статье представлена информация об истории баскетбола.

А также дана информация о растущем интересе к этому виду спорта, который требует активности и ловкости.

**Resume.**

This articles provides information about the history of basketball. Interest in the sport is growing, as is the fact that the sport requires speed and agility.

**Таяныш сөзлер:** физикалық, баскетбол, спорт, тараў, түр, бәркамаллық, себетше, топ, чемпионат.

**Ключевые слова:** физический, баскетбол, спорт, специальность, вид, совершенство, корзина, мяч, чемпионат.

**Keys words:** physical, basketball, sport, specialty, kind, perfection, basket, ball, championship.

---

**UDK. 801**

## QARAQALPAQ TILINDEGI ANTONIM SÓZLERDI ÚYRENIWDIŇ GEYPARA MÁSELELERI

**Dosimbetova E.A.**

*Qaraqalpaq mámleketlik universiteti*

Qaraqalpaq tili sózlik quramında antonimiya qubılısı belgili orındı iyeleydi. Olar tilde hár qıylı leksikalıq birliklerdiń járdeminde payda bolıp, antonimlik juplıqlardı dúzip keledi.

Tilimizdegi antonimler filolog ilimpazlar tárepinen belgili dárejede úyrenilgen. Eń dáslep professor E.Berdimuratovtıń “Házirgi qaraqalpaq tili leksikologiya” miynetinde antonimлерге кеń túsinik берілген: “Antonimler de qaraqalpaq tilinde amonim, sinonim sózlerге uqsap, tildiń leksikasında sózlerdiń belgili bir toparın qurap turadı. Sonıń menen birge amonim hám sinonimlerden túp-tamırınan basqasha. Eger amonim sózler forması jaǵınan birdey, biraq mánisi hár qıylı (jas jigit, jas shıqtı), sinonimler aytılwı

boyınsha hár túrli mánileri birdey, bir-birine jaqın sózler bolsa (sulıw, gózzal, shıraylı), al antonimler forması boyınsha tek hár túrli bolıp ğana qoymastan, bir-birine birotala qarsı keletuĝın sózlerden ibarat” [1.52]. Bul túsinikler onıń leksika boyınsha sabaqlıqlarında tereńlestirildi.

Házirgi zaman qaraqalpaq ádebiy tili leksikasında antonimlerdi úyreniw bul leksikanıń basqa máselelerin úyreniw ushın da úlken áhmiyetke iye. Óytkeni, sózlerdiń qarama-qarsı mánilerin anıqlaw arqalı tildegi polisemiyalıq qubılıslardı, amonimiyalıq hám sinonimiyalıq qubılıslardı ańsat belgilewimiz múmkin. Ásirese, onıń “Ádebiy tildiń funkcionallıq stilleriniń rawajlanıwı menen qaraqalpaq leksikasınıń rawajlanıwı” atamasındaĝı monografiyasında qaraqalpaq tiliniń funkcionallıq stilleri keń túrde izertenip, qaraqalpaq tilindegi antonimlerdiń sóz shaqaplarına qatnası, olardıń kórkem shıǵarmalarda stillik qollanıwı kóp sanlı mısallar tiykarında tallanǵan hám olardan ilimiy juwmaqlar islengen.

Bulardan basqa qaraqalpaq tiliniń antonimleri professor M.Qudaybergenovtıń miynetlerinde izertlendi. Alımnıń “Berdaq – sóz zergeri” maqalasında qaraqalpaq ádebiyatı klassigi Berdaq babamızdıń shıǵarmalarında jumsalǵan antonim sózler, olardıń qollanıw ózgeshelikleri, emocionallıq-ekspressivlik tásiridi kúsheytip beriwde antonimlerdiń xızmeti sóz etilgen. Al, onıń T.Bashirov penen birge islep shıqqan “Qaraqalpaq tili antonimleriniń qısqasha sózligi” [2] qaraqalpaq til bilimindegi antonimiya mashqalasına arnalǵan eń tiykarǵı qollanba bolıp esaplanadı.

Sonıń menen birge, professor Sh.Ábdinazimovtıń lingvofolkloristika hám qaraqalpaq klassik shayırı Berdaq Ğargabay ulınıń ádebiy miyraslarınıń tilin tereń hám hár tárepleme izertlewge arnalǵan miynetinde [3] de antonimler sóz etilip, olardıń qanday túsinikler ańlatıw ushın shayır shıǵarmalarında qollanǵanlıǵı hám sóz shaqaplarına qatnası anıqlanǵan.

Qaraqalpaq tilindegi antonimlerdiń sinonimler menen baylanısı máselesin úyreniwge arnalǵan A.Bekbergenovtıń arnawlı maqalası hám onıń “Qaraqalpaq tiliniń stilistikası” miynetinde qaraqalpaq ádebiy tilindegi antonimlerdiń payda bolıwında sinonimlerdiń xızmetin, antonimlerdiń antiteza, oksyumorın xızmetlerinde jumsalıwı anıqlanǵan [4.27].

Izertlewshi SH.Xojanov tárepinen qaraqalpaq tilindegi antonimler arnawlı túrde úyrenilip shıǵıldı. Onıń kóp sanlı maqalalarında antonimlerdiń stillik qollanıwı, sóz shaqaplarına qatnası, mánilik túrleri, qurılısı boyınsha túrleri hám basqa da xızmetlerine ayrıqsha toqtalıp ótilgen. Ásirese, onıń “Qaraqalpaq tilindegi antonimiya qubılısı” temasındaĝı doktorlıq dissertaciya jumısın til ilimindegi úlken jańalıq dewimizge boladı. Ilimpazdıń usı atamadaĝı monografiyasında antonimiyaniń teoriyalıq mashqalaları, qaraqalpaq tilindegi antonimlerdiń basqa leksika-semantikalıq kategoryalardı qatnası, leksika-grammatikalıq sıpatlaması, stilistikalıq xızmeti hám basqa da belgileri keń túrde izertlengen. “Antonimiya qubılısı lingvistikalıq universalıyanıń eń áhmiyetli kórinislerinen biri bolıp, ol hár qıylı tillerdiń semantika-sintagmatikalıq sistemasınıń tiykarǵı ólshemlerinen esaplanadı. Antonimiyaniń tiykarında kontrast boyınsha asociaciya turadı. Ol óziniń xarakteri boyınsha birdey predmet, qubılıs, háreket, san hám belgilerdiń qarama-qarsı mánili ayırmashılıǵın sáwlelendiredi” [5.11].

Avtorlar jámááti tárepinen jazılǵan “Qaraqalpaq ádebiyatı klassikleri shıǵarmalarınıń tili” kitabınıń qaraqalpaq ádebiyatı klassikleri shıǵarmaları tiliniń semantikalıq ózgesheliklerine arnalǵan bóliminde basqa leksikalıq birlikler qatarında antonimler de sóz etilgen. Avtorlar qaraqalpaq ádebiyatı klassikleri shıǵarmalarında ushırasatuǵın antonimlerdi bir neshe mánilik toparlarǵa bólip, antonimler sózlerdiń tek qarama-qarsı mánige iye bólimi dep qaralмай, al olar tildiń stilistikalıq ayrıqshalıǵınıń, ótkirlik, tásirtiliginiń bir tárepi bolıp keliwin klassik shayırlarımız shıǵarmalarından alınǵan bir qansha mısallar tiykarında ilimiy jaqtan dálillegen.

Qaraqalpaq til biliminde usı baǵdardaǵı jumıslar tilimizdegi antonimlerdiń ózine tán ózgesheliklerin ashıp beriwge qosılǵan úles bolıp, bul izertlewlerde kópshilik jaǵdayda antonimlerdiń basqa leksika-semantikalıq toparlar menen qatnası, stillik jaqtan qollanılıw ózgeshelikleri qarastırılǵan. Usılay etip, sholıw jasalǵan miynetlerden málim bolǵanıday, antonimler hár túrli tillerdiń materialları tiykarında bir qatar izertlewlerdiń obyektı boldı, antonimlerdiń sózligi dúzildi. Usı tiykarda olardıń sózlik quramdaǵı ornı, payda bolıw jolları anıqlandı. Antonimlerdiń basqa semantikalıq kategoriyalar menen baylanısı, sóz shaqaplarına qatnası hám stillik qollanılıw ózgeshelikleri úyrenildi.

Degen menen, antonimlerdiń jınıslıq máni menen baylanısı, yaǵnıy jınıslıq máni bildiriwshi sózlerdiń, antonimlik jubay bildiriwshi sózlerdiń antonimlik jubay dúze alıw yamasa dúze almawı, antonimlerdiń bir túbirge hár túrli qosımtalardıń qosılıwı menen jasalıwı yamasa jasalmawı, antonimlerdiń túrlerin ajratıw principi tiyurkologiyada óz sheshimin kútip turǵan máseleler barshılıq. Tilimizdegi antonimler ele de izertleniwdi talap etedi. Ol kúndelikli pikir alısıw procesinde sózlerdiń mánisin hám tásirsheligin bir-birimizge jetkeriw ushın xızmet etedi. Solay eken, qaraqalpaq tilindegi antonimlerdi izertlew, ásirese onıń kórkem shıǵarma tilinde qollanılıwın úyreniw máselesi búgingi kúni qaraqalpaq til biliminde ele de bolsa keńirek baǵdarda izertewdi talap etetuǵın máselelerdiń biri bolıp tabıladı. Onı izertlew antonimlerdi oqıtıwda, sózlik quramdaǵı semantikalıq qubılıslardı anıqlawda úlken teoriyalıq hám ámeliy áhmiyetke iye. Sonday-aq, onıń juwmaqları antonimler boyınsha tolıq sózlikler dúziwde, til iliminiń leksikologiya tarawı boyınsha sabaqlıqlar menen oqıw qollanbalar islewde belgili xızmet atqara aladı, dep isenemiz.

#### Ádebiyatlar:

1. *Berdimuratov E.* Házirgi qaraqalpaq tili. Leksikologiya. – Nókis: “Bilim”, 1994.
2. *Qudaybergenov. M, Bashirov T.* Qaraqalpaq tili antonimleriniń qısqasha sózligi. – Nókis: “Bilim”, 1995.
3. *Abdinazimov. SH.* Berdaq shıǵarmalarınıń tili. – Toshkent: “Fan”, 2006.
4. *Bekbergenov A.* Sinonimler hám antonimler. Qaraqalpaq tili boyınsha izertlewler. – Nókis, 1971.
5. *Xojanov SH.* Qaraqalpaq tilindegi antonimiya qubılısı. – Nókis: “Bilim”, 2017.
6. *Nasirov D., Dospanov O., Bekbergenov A., Saytov D.* Qaraqalpaq ádebiyatı klassikleri shıǵarmalarınıń tili (Jiyen jıraw, Kúnxoja, Ájiniyaz, Berdaq, Ótesh, Omar hám A.Musaev shıǵarmalarınıń materialları boyınsha). – Nókis: “Bilim”, 1995.

Ushbu maqolada qoraqalpoq tilidagi antonim soʻzlar boʻyicha ilmiy ishlar, tadqiqotlar oʻrganilib, antonimlarning baʼzi masalalari tadqiq qilingan.

В статье рассматриваются научные работы по антонимам каракалпаков и некоторые вопросы антонимов.

This article examines the scientific work on Karakalpak antonyms and some issues of antonyms.

**Tayanch soʻzlar:** qoraqalpoq til ilmi, antonim, antonimiya jarayoni, antiteza, oksyumorin.

**Ключевые слова:** каракалпакское языкознание, антоним, антонимический процесс, антitezис, оксюморин.

**Key words:** karakalpak linguistics, antonym, antonymy process, antithesis, oxymorin.

UDK. 613.31

## SUYUQLIK ISTEʻMOL QILISHNI TASHKILLASHTIRISH TAMOYILLARI

R.Reymbaeva, A.Patullaeva, R.Ernazarova

*Oʻzbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Nukus filiali*

Hech kimga sir emaski, inson organizmining 72,8 foizi suvdan iborat boʻlib, uning tanada yetishmasligi jiddiy muammolar keltirib chiqarishi mumkin. Suv doimiy ravishda tanadan chiqarib turilganligi sababli, uning oʻrnini toʻldirib turish lozim.

Suv faqat odam organizmida emas, balki barcha tirik mavjudotlar uchun eng zaruriy va hayotiy oziq modda boʻlib xizmat qilishi oddiy haqiqat. Suvsiz hech bir tirik organizm yashashi, koʻpayishi, turli-tuman faoliyat koʻrsatishi mumkin emas.

Har qanday oziq-ovqat mahsulotlarining isteʻmol qilinishi, tegishli qismlarga parchalanishi, qon va limfaga soʻrilishi ularning suvdagi eritmasi sifatidagina yuz beradi. Bundan tashqari oziq-ovqatlarni parchalovchi fermentlar, gormonlar va boshqa biologik faol moddalar hamda tanadagi barcha hujayra va toʻqimalarning asosiy tarkibini ham suv tashkil qiladi.

Suv birinchi navbatda hamma hujayra va toʻqimalar tarkibida boʻladigan organik va anorganik moddalarni maʼlum quyuqlikda va osmotik bosimda saqlaydi. Bu esa tiriklik uchun juda zarur. Katta yoshli odam tanasining oʻrtacha 60-70% i, endi tugʻilgan bolada esa tananing 80% ini suv tashkil qiladi. Quyidagi jadvalda turli aʼzoldagi suv miqdori keltirilgan.

## Tana a'zolaridagi suv miqdori

A'zo yoki to'qima	Suv miqdori (% hisobida)	Tana massasiga nisbatan, % hisobida
Teri	72,0	18,0
Muskullar	75,6	41,7
Skelet	22,0	15,9
Miya	74,8	2,0
Jigar	68,3	2,3
Yurak	79,8	0,5
O'pka	79,0	0,7
Buyraklar	82,7	0,4
Taloq	75,8	0,2
Qon	83,0	8,0
Ichaklar	74,5	1,0
Yog' to'qimasi	10,0	10,0

Odatda, sog'lom odamda suvning qabul qilinishi va chiqarilishi bir-biriga teng bo'ladi. Muhit harorati o'rtacha bo'lib, ovqatlanish hamda kiyinish me'yorida bo'lsa, bir kecha-kunduzda 2,5 l suv qabul qilinadi, shuning teng yarmi suv va suyuqliklar ko'rinishida ichiladi, qolgan qismi ovqat bilan qabul qilinadi va asosiy oziq moddalarning oksidlanishidan yuzaga keladi. Bunda 1 g uglevod oksidlanganida 0,6 ml, 1 g yog' oksidlanganda 1,09 ml, xuddi shuncha oqsil oksidlanganda esa 0,44 ml suv hosil qilinadi. Suvning vujudan chiqarilishi siydik ajratish, teri va o'pka orqali bug'lanish hamda axlat orqali bo'ladi.

Har bir vujudda hayotiy jarayonlarning ma'lum bir me'yorda borishi uchun qabul qilinadigan suvning eng kam miqdori mavjud. Masalan, katta odamlarda bu ko'rsatkich o'rtacha 1,5 l atrofida. Agar undan kam suv qabul qilinsa, qon quyushadi va uning osmotik bosimi oshib ketadi.

Har xil hayotiy sabablarga ko'ra tana og'irligining 5% miqdorida suv yo'qotilsa (masalan, issiq sharoitda ishlash tufayli ko'p terlash, kuchli jismoniy faollik va h.k), odamning ish qobiliyati sezilarli darajada pasayib ketadi, bu ko'rsatkich 10% ga etsa, ahvol yanada og'irlashadi va 20%ga etganida kishi o'ladi. Qabul qilinadigan suv miqdorining me'yoridan oshib ketishi bosh og'rishi va bosh aylanishi, mehnat qilish qobiliyatining pasayishi, ko'ngil aynishi kabi suvdan zaharlanish holatlariga olib keladi.

Tabiiy holda suv bir qator moddalar bilan birikmalar hosil qilib, aralashgan bo'ladi. Uning tarkibida kationlardan  $Ca^+$ ,  $Mg^+$ ,  $Na^+$ ,  $K^+$ , anionlardan  $CO_3^-$ ,  $Cl^-$ ,  $SO_4^-$ , biomikroelementlardan esa Fe, P, J, Cu, Zn va boshqalar ko'p uchraydi. Oqar suv tarkibida esa tuproqdagi har xil chirindi organik moddalar, ko'pgina tuzlar bo'ladi. Suv tarkibining bunday turli moddalarga boy bo'lishi muhim ahamiyatga ega. Chunki aytib o'tilganidek, suv mineral moddalar bilan vujudni ta'minlovchi asosiy vositachi modda

hisoblanadi. Mineral moddalarsiz esa hayot kechirish mumkin emas, shuning uchun iste'mol qilinadigan suvda kerakli moddalarning ma'lum me'yorda bo'lishi maqsadga muvofiq. Hozirgi kunda axoli orasida tozalangan suvni doimiy ishish odatga aylangan tugri tozalangan suv lekin uning tarkibidagi mineral moddalar bor deb aytish qiyin. Yukoridagilardan kelib chiqib aytish mumkinki, suv inson hayoti uchun eng muhim zaruriy suyuqlik bo'lib, uni doimiy ravishda tegishli miqdorda va tarkibda oziq modda sifatida qabul qilib turish tiriklik uchun muhim shartlardan biri hisoblanadi. Boshqacha aytganda, yashash uchun zarur bo'ladigan barcha hayotiy jarayonlar, jumladan moddalar va energiya almashinuvi, organizmdagi barcha biologik suyuqliklarning (qon, limfa va boshqalar) harakati, yangilanishi hamda tegishli tarkibda va miqdorda bo'lishi, asab, endokrin va muskul tizimining zaruriy faoliyati, iste'mol qilingan oziq-ovqat mahsulotlarining o'z vaqtida hazm bo'lishi va boshqalar, har bir vujud uchun kerakli miqdorda va tarkibda suv iste'mol qilib turilganida me'yorida kechadi. Aytib o'tilgan holatlarni tushunish va ularga amal qilish esa har kimdan ma'lum darajada suv iste'mol qilish madaniyatiga ega bo'lishni taqozo qiladi. Uni umumiy ovqatlanish madaniyatining ajralmas bir qismi deb qarash mumkin.

Suv iste'mol qilish madaniyati deganda, dastavval, har kimning o'z vazni, yoshi, jinsi, bajaradigan aqliy yoki jismoniy mehnati, ayni hududdagi ekologik va boshqa shart-sharoitlarga ko'ra qancha, qanday va qachon suv ichish kerakligini bilishi tushuniladi. Ma'lumki, Respublikamizda yilning asosiy qismini quyoshli kunlar tashkil etadi. Bunday issiq kunlarning boshlanishi barcha tirik mavjudotning suvga bo'lgan munosabatini yanada yaqqolroq namoyon qiladi. Suv iste'mol qilish madaniyatiga qarab kishilarning o'z salomatligiga munosabati, aqliy va jismoniy jihatdan serunum mehnat qilishi, uzoq umr ko'rishi shakllanadi. Shu bois ushbu masalaga hozirgi kunda butun dunyo bo'yicha alohida e'tibor berilmoqda.

Suv hujayra va to'qimalar hayotining asosi bo'lib, uning oz yoki ko'pligi, tarkibiy jihatdan maqsadga muvofiq emasligi dastavval barcha fiziologik va biokimyoviy ko'rsatkichlarni izdan chiqaradi. Vujudimizda kuzatiladigan moddalar va energiya almashinuvining 85%i suvli muhitda o'tadi, hech bir energiya beruvchi yoki plastik moddalar, vitaminlar yoki mineral moddalar, oziq modda zarrachalari suvsiz o'zlashtirilmaydi. Hayotiy jarayonlar natijasida hosil bo'lgan keraksiz, zararli va zaharli moddalar faqat suv ishtirokida tanani tark etadi. Iste'mol qilinayotgan suv toza va sifatli bo'lsa, hujayra va to'qimalar membranasini emiradigan hamda xavfli kasalliklarni uyg'otadigan erkin radikallarning ko'payib ketmasligi ta'minlanadi, juda ko'p xastaliklarning yaratuvchisi bo'lgan ortiqcha yog' zahirasi to'planishining oldi olinadi. Shuni ham aytib o'tish lozimki, tanadagi oshiqcha yog'dan qutilishni xohlovchilar ovqat bilan birga suv, choy yoki sharbat kabi suyuqliklarni ichmasliklari lozim. Aks holda suyuqliklar bilan aralashgan taomlar tegishli vaqtdan oldin ichaklarga o'tib ketadi va bu holat o'z navbatida tez och qolishga sabab bo'ladi. Qolaversa, oshqozon shirasining ta'sir etuvchi kuchi susayib, unga tushgan oziq moddalar yetarli darajada qayta ishlanmaydi, natijada ichaklarga ortiqcha yuklama tushadi, kishi bezovta bo'ladi.

Suv tanada tegishli haroratni saqlab turuvchi muhim issiqlik boshqaruvchisi bo'lib ham xizmat qiladi. Tashqi muhit harorati vujud haroratidan ancha yuqori (O'rta Osiyo

sharoitida) yoki keskin past bo‘lganida (Shimoliy o‘lkalarda) ham tana haroratining doim bir xil bo‘lishida suvning xizmati beqiyos. Issiq yoz faslida jismoniy mehnat qilish yoki mashq bajarish, sport bilan shug‘ullanish tananing oshiqcha qizib ketib, uni issiq urishidan himoyalaniishi suv vositasidagina amalga oshiriladi. Bunday paytda teri yuzasidan va o‘pkadan ajralib turadigan suv bug‘lari tufayli fizikaviy qonuniyatlar asosida harorat oshib ketmasligi ta‘minlanadi.

O‘rni kelganda shuni ham ta‘kidlab o‘tish lozimki, suvga bo‘lgan ehtiyojni to‘liq qondirishda yoki suv almashinuvining me‘yoriy borishiga erishishda ichiladigan suyuqliklar orasida choy alohida o‘rin egallaydi. Ayniqsa, issiq iqlimli o‘lkalarda u nafaqat chanqoqbosdi ichimlik sifatida, balki charchoqni chiqaruvchi, ayrim kasalliklarni davolovchi, asab tizimini tinchlantiruvchi va boshqa shifobaxsh xususiyatlariga ko‘ra e‘tiborga sazovor. Respublikamiz aholisi esa choyga nisbatan alohida munosabatga ega. Shuni alohida aytish joizki, choyni qachon, qancha va qanday ichishni bilish organizmda kechadigan suv almashinuvining maqsadga muvofiq bo‘lishida muhim ahamiyata ega. Tadqiqotlarda isbotlanishicha, choy tarkibidagi kofein, tanin, antioksidantlar, alkaloidlar, ko‘plab vitaminlar, mineral moddalar (makro va mikroelementlar), tinchlantiruvchi moddalar organizm uchun o‘ta foydali hamda ter bilan yo‘qotiladigan turli moddalarning o‘rnini to‘ldirishda, chanqoqni qondirishda beqiyosdir.

Ichiladigan suvning tarkib va sifat jihatidan maqsadga muvofiq bo‘lishi, ya‘ni ichimlik suvining toza va vujud uchun kerakli moddalarga ega bo‘lishi sog‘lom turmush tarzining asosiy ko‘rsatkichlaridan biridir. Bugungi kunda vujud ehtiyoji uchun ishlatiladigan suvning turli-tuman chiqindilar bilan tobora ifloslanib ketayotganligi ancha tashvishli hol. Chunki ichterlama, dizenteriya, vabo va boshqa qator xavfli kasalliklar aynan ifloslangan suvdan foydalanish sababli tarqaladi. Bundan tashqari gepatit, brutsellyoz, poliomyelit kabi xastaliklarning tarqatuvchilari ham suv orqali berilishi kuzatilgan. Ko‘pgina chuvalchaglarning tuxumlari ham suv yordamida oshqozon-ichak tizimiga o‘tib, o‘sha joyda tekinxo‘rlarga aylanadi.

Yuqorida suv tarkibida foydali va kerakli elementlar borligi aytib o‘tildi. Biroq shuni unutmazlik lozimki, suv tarkibida ayrim moddalar ma‘lum miqdordan oshib ketsa, u zararli hisoblanadi. Bularga temir, marganec, sulfitlar, ftoridlar, kalsiy va magniy tuzlari, har xil organik birikmalar va boshqalar kiradi. Temir va uning gidrokarbonatlari, sulfatlar, xloridlarning suvda tegishli miqdordan oshib ketishi unga qizil-sarg‘ish rang beradi, ta‘mini yomonlashtiradi, temir bakteriyalarini ko‘paytirib, suv quvurlarida cho‘kma hosil qiladi. Agar ichimlik suvida marganec miqdori ziyod bo‘lsa, uning ta‘mi buziladi, quvurlarda qora qoplamalar paydo bo‘ladi. Doim shunday suv ichib yurilsa, inson organizmida irsiy o‘zgarishlar kelib chiqishi ham mumkin. Suvda xloridlar va sulfatlar miqdori tegishli darajadan oshganda u achchiq va taxir ta‘mga ega bo‘lib, ichish uchun yaroqsiz hisoblanadi. Suvning qattiqligi deganda uning tarkibidagi kalsiy va magniy kationlarining me‘yoridan oshib ketishi tushuniladi. Doimiy holda bunday suv ichib yurish artrit, poliartrit kabi bo‘g‘im xastaliklariga, buyraklar, siydik qopi, o‘t xaltasida tosh qolishiga olib keladi. Odatda, tish chirish kasalligi (kariyes) suvda ftor elementining juda kamayib ketishi bilan bog‘liq. Ammo uning konsentratsiyasi yuqori bo‘lishi ham xavfli.

Keyingi paytlarda tadqiqotlarda shu narsa aniqlandiki, ichish uchun eng yaroqli va foydali suv – distillangan suv sifatida tog‘lardagi muz va qorlarning erishidan hosil bo‘lgan, 10-150 m chuqurlikdan chiqariladigan artezian suvlari, muzlatgichlarda yaxlatilib, keyin eritib olingan suvlar e’tirof etilmoqda. Shuningdek, turli ho‘l mevalar tarkibidagi suvlar organizm uchun foydaliligi bilan ajralib turadi. Chunki meva-chevalar tarkibida suv va unda erigan mineral elementlar, organizm uchun zarur turli biologik faol moddalar mavjud.

Sportchilar faoliyatida suv almashinuvi o‘ziga xos muhim ahamiyatga ega. Suv issiq iqlim sharoitida jismoniy faollik paytida organizmni sovutadigan asosiy vosita hisoblanadi. Ya’ni jismoniy mashqlar natijasida tana harorati ko‘tariladi, ter ajralishi esa uni pasaytiradi. Biroq haddan ortiq ko‘p terlash katta miqdorda suv yo‘qotishga olib keladi va organizmning kuchli suvsizlanishi kuzatiladi.

### **Xulosa**

Aniqlanishicha, issiq haroratda o‘rta quvvatli jismoniy mashqlar bilan shug‘ullanilganda o‘rtacha tana massasiga (70 kg) ega bo‘lgan sportchi 1 soatda 1,5-2,0 litrgacha, katta quvvatli jismoniy ish bajarilganda esa 2-3 litrgacha suv yo‘qotishi mumkin ekan. Ter bilan birga natriy, kaliy hamda xlor ionlari ham yo‘qotiladi. Ko‘p suv yo‘qotish natijasida qon quyuqlashib, tana massasi kamayadi, bu esa, o‘z navbatida, aerob metabolizmning buzilishiga, energiya almashinuvining yomonlashishiga olib keladi.

Aytib o‘tilgan salbiy holatlarning oldini olish uchun yo‘qotilgan suv hamda elektrolitlar o‘rnini to‘ldirib borish maqsadga muvofiq, aks hoda sportchining ish qobiliyati pasayib ketadi. Odatda, sportchilar suvni jismoniy mashqlarni boshlashdan birmuncha oldin ichishlari lozim. Yo‘qotilgan suvning o‘rnini to‘ldirish esa jismoniy faollikdan keyin biroz vaqt o‘tib amalga oshiriladi. Jismoniy faollikdan so‘ng alkogolli va tarkibida kofein mavjud ichimliklar tavsiya etilmaydi. Chunki ularning tarkibidagi moddalar siydik ajralishini tezlashtiradi va organizmning yana suvsizlanishiga olib keladi.

Sportchilarda ter bilan yo‘qotilgan suvning o‘rnini to‘ldirishda uglevodlarga yoki minerallarga boyitilgan ichimliklar juda foydali. Masalan, bunday ichimliklar tarkibida ko‘pincha 4-8% uglevod (saxaroza, glyukoza va b.) bo‘ladi. Natijada ichimliklarning ta’mi yaxshilanadi va uglevodlar taqchilligining oldi olinadi. Shuningdek, ichiladigan suv tarkibiga natriy qo‘shilsa (1 litr suvga 1,5-5,5 g), suvning so‘rilishi yaxshilanadi, tashnalik yaxshiroq qondiriladi, organizmning suyuqlik muvozanati tezroq tiklanadi. Ter suyuqligi bilan yo‘qotilgan kaliyning o‘rnini qoplashda o‘rik, pomidor yoki uzum sharbatlarini ichib turish maqsadga muvofiq.

Issiq haroratda sportchilar tomonidan bajariladigan yuklama miqdori oshib ketib, ko‘p ter yo‘qotilgan sharoitda darhol ko‘p suv ichish zararli. Ayniqsa, birdaniga ko‘p miqdordagi suvni simirib ichish tavsiya etilmaydi. Kuchli chanqoq tuyg‘usi paydo bo‘lganda suvni asta-sekin, qultumlab ichish maqsadga muvofiq. Shunday qilinganda tashnalik tez qondiriladi, organizm suvni oson o‘zlashtiradi.

Adabiyotlar:

1. *Мелиева М.С.* Общая и спортивная гигиена. - Т.: 2006.
2. *Парастаев С.А.* Питание спортсменов: рекомендации для практического применения (на примере футбола). – Спорт; М.; 2018.
3. *Мазнев Н.* Правильное питание секреты здоровья и долголетия. - М.: 2008.
4. *Нестеренко В.И., Насыпова Л.Г.* Лечебная кулинария. - Т.: Узбекистан, 2004.
5. *Qurbonov SH.* Ovqatlanish madaniyati. - Т.: Ma'naviyat, 2005.
6. *Shoxmurodzoda H.M., Karomatulloh H.F.* Taomlanish odobi. - Т.: Movarounnahr, 2005.
7. *Волков Н.И.* Биологически активные пищевые добавки в специализированном питании спортсменов/ Н.И. Волков. - М.: СпортАкадемПресс, 2020. - 194 с.
8. *Борисова О.О.* Питание спортсменов: зарубежный опыт и практические рекомендации. – М.; Советский спорт, 2007. -132 с.
9. Met, Fitsdjerard Диета чемпионов. 5 принципов питания лучших спортсменов / Fitsdjerard Met. - М.: Mann, Ivanov i Ferber, 2017. - 172 с.
10. *Do'schanov B.O., Yusupova O.B.* Bolalarning oilada to'g'ri ovqatlanishining gigiyenik asoslari. Pediatriya. – Т.: 2001.-26-29 б.

Elektron ta'lim resurslari:

1. <http://www.lex.uz>
2. <http://www.ziyonet.uz>
3. <http://www.gov.uz>
4. <http://ed.sjtu.edu.cn/ranking.htm>
5. <http://education.guardian.co.uk>
6. <http://www.aboutstudy.ru>
7. <http://www.reitor.ru>

**Rezyume**

Bul maqalada suwdı tutınıw mádeniyatı haqqında, sonday-aq eń dáslep hár kimniń salmağı, jası, jınısı, orınlaytuğın aqlılıy yaki fizikalıq miyneti, usı aymaqtağı ekologiyalıq hám basqa shárt-sharayatlarǵa qarap qansha, qanday hám qashan suw ishiw kerekligin biliwi haqqında aytip ótilgen.

**Резюме**

В статье рассматривается о культуре потребления воды, прежде всего, подразумевается, что каждый знает, сколько, как и когда пить воду в зависимости от собственного веса, возраста, пола, умственного или физического труда, который он выполняет, окружающей среды и других условий в той территории.

**Resume**

The article deals with the culture of water consumption, first of all, it is understood that everyone knows how much, how and when to drink water depending on their own weight, age, gender, mental or physical labor that he performs, the environment and other conditions in that territory.

